

Samarqand davlat universiteti

Musiqiy ta'lim yo'nalishi

**Musiqqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari
kafedrasi**

**“TALABALARNI XOR DIRIJYORLIGI BO'YICHA AMALIY
FAOLIYATGA TAYORLASHNING USLUBIY ASOSLARI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi:

Kenjayeva Dildora

Ilmiy rahbar:

Dots.I. Qudratov

Samarqand – 2014

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

**MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA XALQ CHOLG'U
ASBOBLARI KAFEDRASI**

MAVZU: "TALABALARNI XOR DIRIJYORLIGI BO'YICHA AMALIY FAOLIYATGA
TAYORLASHNING USLUBIY ASOSLARI"

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Kenjayeva Dildora

Ilmiy rahbar: Dots.I. Qudratov

Bitiruv malakaviy ishi Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg' asboblari kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014– yil 28–maydagi majlisda muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

E.K.Djalilov

Malakaviy bitiruv ishi YakDAKning 2014 – yil ____ – iyundagi majlisida himoya qilindi va ____ foizga baholandi. (bayonnoma № ____)

YakDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand – 2014

**Musiqi badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti « Musiqa o'qitish
metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrası majlisining 10-
bayonnomasidan**

KO'CHIRMA

Samarqand
2014 yil 28-may.

Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 15 nafari

Majlis raisi: E.K.Djalilov

Kotiba: N.Qurbonova

KUN TARTIBI

«Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrası 2013 – 2014 – o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarining himoyaga tavsiya etish haqida.

SO'ZGA CHIQDI : E.K.Djalilov

ESHITILDI: 2013 – 2014 – o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri E.K.Djalilov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi:

2013-2014 Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr bitiruvchi kurs talabasi Kenjayeva Dildora “Talabalarni xor dirijyorligi bo'yicha amaliy faoliyatga tayorlashning uslubiy asoslari” mavzusida bitiruv malakaviy ishini yozib tayyorladi. Ilmiy rahbari Dots.I. Qudratov

Talaba mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. So'zni bakalavr Kenjayeva Dildoraga bersak u o'zining bitiruv malakaviy ishining mazmuni bilan tanishtiradi.

Kenjayeva Dildora bitiruv malakaviy ishining mazmun – mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib o'tdi.

Shundan so'ng talabaga kat.o'qit.E.Djalilov va M.Murodov savollar berishdi: Kenjayeva Dildora berilgan savollarga javob qaytardi.

Kenjayeva Dildoraning mavzu bo'yicha chiqishi va savol – javoblardan so'ng mazkur bitiruv malakaviy ishini Yak.DAK ga himoya qilishga tavsiya etish haqida fikr – mulohazalar bildirildi.

Ushbu masala yuzasidan kafedra yig'ilishi

QAROR QILDI:

1 «Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrası Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi. Kenjayeva Dildora “Talabalarni xor dirijyorligi bo'yicha amaliy faoliyatga tayorlashning uslubiy asoslari” mavzusida bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va bitiruv malakaviy ishi Yak.DAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Kenjayeva Dildoraning ushbu bitiruv malakaviy ishiga SamDU Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası dots.X.Yusupov taqrizchi deb belgilansin.

3. «Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrası ushbu qarorni tasdiqlash fakultet dekanidan so'ransin.

Majlis raisi:

E.K.Djalilov

Kotiba:

N.Qurbonova

**Mavzu: Talabalarni xor – dirijorligi bo'yicha amaliy
faoliyatga tayyorlashning uslubiy asoslari.**

MUNDARIJA

KIRISH.....

**I BOB: Musiqiy ta'lim mutaxassislik fanlari tizimida dirijyorlik
predmetining tutgan o'rni.**

**1.1. Musiqa o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda dirijyorlik faniga
qo'yiladigan talablar.....**

**1.2. Dirijyorlik fani bo'yicha o'quv faoliyatining
mazmuni.....**

**II BOB: Dirijyorlik fani bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy tuzulish
xususiyatlari.**

**2.1. Dirijyorlik mashg'ulotlarida o'quv jarayonining asosiy
bosqichlari**

**2.2 Dirijyorlik mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakl va
uslublari.....**

Umumiy xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati.....

Ilovalar.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish o'quvchilarni ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, jismonan sog'lom, milliy, madaniy qadriyatlarga ongli munosabatda bo'ladigan, shuningdek fan sirlarini chuqur egallagan har tomonlama bilimli insonlar qilib tarbiyalash jamiyatimizni rivojlantirishga qaratilgan barcha vazifalar ichida ustivor ahamiyat kasb etib turibdi. Ta'limning barcha bo'g'inlarida va fanlar yo'nalishlarida bo'lgani kabi o'quvchi – yoshlarni axloqiy, estetik, ma'naviy jihatdan yetuk va milliy g'oyalarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularning badiiy tafakkurini o'stirishda umumta'lim maktablarida “musiqa madaniyati” fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasi muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda yosh avlod tarbiyachilari jamiyat rivojiga mos bilim. Ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini Prezidentimiz I. A. Karimov alohida ta'kidlaydi: “... Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak” 1/. Demak, o'qituvchilarning kasbiy shakllanganligi va amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasi zimmasidagi vazifalarni bajarishga nisbatan mas'uliyat bilan ijodiy yondashish hamda o'z ustida qunt bilan ishlash asosida ta'minlanadi. Buning uchun esa eng avvalo, ta'limning barcha bo'g'inlari uchun mutaxassis pedagog – murabbiylar tayyorlaydigan pedagogika oliy o'quv yurtlarida har bir fan yo'nalishi

bo'yicha ta'lim mazmunini takomillashtirib borish bo'lg'usi o'qituvchilarni o'z sohasi bo'yicha har tamonlama malakali kadrlar bo'lib yetishishlariga erishish lozim bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan “musiqa madaniyati” fani o'qituvchilarini tayyorlashda o'quvchi – yoshlarni madaniy, ma'naviy, mafkuraviy shakllangan, milliy o'zligi, tili, diniy e'tiqodi, qadriyatlari, an'ana va urf – odatlari va milliy musiqa merosimizga sodiq va ularga sodiq va ularga vorislik qilaoladigan komil inson sifatida tarbiyalash kabi keng ko'lamli vazifalar oliy ta'limda ta'lim mazmunini uzluksiz takomillashtirishini talab qiladi. Musiqa o'qituvchilari kelgusida pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi, ya'ni musiqa san'atining bir paytda bir necha sohalaridan yetuk bilim, malakalarga ega bo'lish lozimligi ularni kasbiy tayyorlash mas'uliyatini yanada oshiradi. Shuning uchun ham bo'lajak musiqa o'qituvchisi shaxsini kasbiy rivojlantirish va boytish, nazariy va amaliy ijrochilikka yo'naltirish asosida uni o'z sohasining mohir mutaxassisi qilib yetishtirish hamda “Davlat Ta'lim Standartlari” talablari darajasida shakllantirish muammolari yotadi. Zero, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarliklariga bog'liq. Bu esa musiqa o'qituvchilari tayyorgarligiga ixtisoslashtirilgan ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni musiqaning nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog'liq bir necha sohalardan, jumladan vokal kuylash, cholg'u asbobida ijro etish, jamoaviy ijroni tashkil qilish va boshqarish, musiqa tarixi kabi sohalardan yuqori malaka va tayyorgarlikka ega bo'lishligi taqazo etadi. Bu o'rin musiqa darslarining asosiy faoliyati bo'lmish jamoa bo'lib qo'shiq kuylash

faoliyatini tashkil qilish, boshqarish o'qituvchidan xor va xorshunoslik asoslari bilan birgalikda "dirijyorlik" boshqaruvchi bo'yicha ham keng qo'llashi bilan va iqtidorga ega bo'lishini talab etadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari faoliyatida "dirijyorlik" fani bo'yicha egallangan bilim va malakalar musiqa darslarida jamoaviy ijroni badiiy yuksak sifat va samaradorlik kasb etishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham bo'lajak musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash o'ziga xos ilmiy – nazariy, uslubiy, amaliy jarayonni talab qiladiki, uning pedagogik asoslarini ochib berish ushbu tizimni talab darajasida shakllantirishda o'z samarasini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda va hamdo'stlik respublikalarida musiqa pedagogikasi aniq ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu yo'limizda ko'plab muhim va ahamiyatga ma'lum izlanishlar qilingan. Bunday ishlarni asosiy ko'pchiligida musiqiy asarlar, ularda ilgari surilgan g'oyalarning shaxs kamolotidagi o'rni, musiqiy asarlar, xalq musiqa merosi, qo'shiqlar, folklor va mumtoz musiqa yordamida estetik tarbiyalash masalalari tadqiq etilgan. Bunday ishlar jumlasiga S.X. Fayzulina, S.K. Annamuratova, R. Qodirov, H. Nurmatov, Q. Mamirov, D. Kamolova, N. Tolliboyev, I. Qudratov, B. Karamatova kabi olimlarni ishlarini misol keltirish mumkin. D. Omonullayev, R. Tursunov, A. Nazarov, D. Jamolova, D. Saidovalarning tadqiqot ishlarida o'zbek xalq musiqasi ishlarining badiiy – estetik ta'lim – tarbiya doirasida o'rganilishini samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Bir qator psixologik, pedagogik va uslubiy ishlanmalarda (S.K. Annamuratova, M. Quronov, A. Hasanov, L.G. Koval) ta'lim nazariyasining ma'naviy – axloqiy, estetik jihatlari yoritilgan.

Oliy ta'lim tizimida talabalarga musiqiy fanlarni o'qitish muammolari N.I. Voloniyen, J.A. Skolskaya, A.N.Ovsinok, A.F. Nazarov kabilar

tomonidan izchil tadqiq etilgan. Dirijyorlik san'atiga oid ilmiy – tadqiqot va metodik ishlar asosan, rus pedagog olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Bunga L.A.Bezborodova, Ivanov Radkevich A, S.A. Kazachkov, E. Kan, I. Musin va yana ko'plab olimlar ishlarini keltirish mumkin. Lekin bu ishlarda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash asosiy tadqiqot muammosi sifatida o'rganilmagan. Shunga asoslanib biz tadqiqotimiz mavzusini “Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy – uslubiy asoslari” deb nomladik.

Tadqiqot maqsadi: Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart – sharoitlarini hamda ularni amalga oshirishning ilmiy – uslubiy asoslarini ishlab chiqish:

Tadqiqot vazifalari:

1. Oliy ta'lim tizimida musiqa fanlari, xususan dirijyorlik fani o'qitilish holatini o'rganish;
2. Dirijyorlik san'ati, uning musiqa ta'limiga bog'liq masalalar o'rganilgan manbalarni tahlil qilish, umumlashtirish va zarur xulosalar chiqarish;
3. Soha mutaxassislari, pedagoglar bilan suhbatlar o'tkazish;
4. Dirijyorlik bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uslublarini aniqlash;
5. oliy ta'lim tizimida dirijyorlik fanini o'qitishning talabalarni kasbiy tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni va metodik tizimini ishlab chiqish;
6. Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilari dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot obyekti: Pedagogika oliy o'quv yurtlari "musiqiy ta'lim" yo'nalishida "dirijyorlik" fanini o'qitishda talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Dirijyorlik fanini o'qitish jarayonida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqot metodlari: Mavzuga oid ilmiy, uslubiy va pedagogik manbalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalash, savol – javob, anketa – so'rovlar o'tkazish, tajriba – sinov ishlari olib borish va matematik statistika.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

- Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning dolzarb pedagogik muammoligi;
- Dirijyorlik fanini o'qitish jarayonida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni;
- Dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonining ilmiy – amaliy asoslari (shakl, usul va vositalar).
- Talabalarda dirijyorlik malakalarini pedagogik faoliyatga tayyorgarligini belgilovchi mezonlar;
- Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy – metodik tavsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Agarda – dirijyorlik fanini o'qitilishi jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart – sharoitlari ilmiy asoslansa.

- bo'lajak musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali ish shakl va usullari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq etilsa;

- bo'lajak musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlashda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanilsa;

- dirijyorlik fanidan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni oshirish asosida xor ijrosini boshqarish, xor bilan ishlay olish tayyorgarlik darajasi samarali bo'ladi, musiqa ta'limi jarayoni mazmuni boyitiladi.

Ishning ilmiy yangiligi:

1. Oliy ta'limda dirijyorlik fanini o'qitish amaliyoti, tajribalar o'rganildi, tahlil qilindi va umumlashtirildi;
2. bo'lajak musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart – sharoitlari yangicha usul, shakl, vositalar, yondashuvlar bilan boyitildi.
3. dirijyorlik mashg'ulotlari yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish mazmuni, uning tashkiliy texnologik jihatlari maxsus tadqiq etildi.
4. dirijyorlik fani o'qitilishi jarayoni samarali kechishiga xizmat qiluvchi uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Oliy ta’lim Bakalavriyat yo’nalish musiqa ta’limi bo’yicha Davlat Ta’lim Standarti, dirijyorlik fani bo’yicha namunaviy fan dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid farmonlari, ma'ro'zalari, asarlari, Oliy ta'lim musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasiga oid meyoriy, uslubiy xujjatlar, pedagogika, psixologiya, etika – estetikaga oid manbalar.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati:

Oliy ta'limda dirijyorlik fani o'qitilishi jarayonida talabalarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash yangicha ilmiy, nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining dirijyorlik mahorati, bilim va

malakalarini samarali shakllanishi darajasini belgilovchi mezonlar, tadqiqot muammosining ijobiy natijalargi erishishini kafolatlovchi ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ulardan Pedagogika Oliy o'quv yurtlaridagi "musiqiy ta'lim" yo'nalishi o'quv rejasida mavjud "dirijyorlik" fanini o'qitishda, ilmiy maqolalar, ma'ro'zalar tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ish Kirish, ikki bob, to'rt paragraf, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ruyhatidan iborat.

Ishning birinchi bobi **"Musiqiy ta'lim mutaxassislik fanlari tizimida dirijyorlik predmetining tutgan o'rni"** deb nomlanib, unda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy muammolari o'rganilgan, hozirgi vaqtda ushbu fanni o'qitilishidagi mavjud kamchiliklar ochib berilgan shu o'rinda dirijyorlik fani o'qitilishida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash maqsad va vazifalari va dirijyorlik bo'yicha har bir o'quvchi uchun egallash zarur bo'lgan bilim va malakalar tizimi ifodalangan.

Ishning ikkinchi bobi "Dirijyorlik fani bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy tuzulish xususiyatlari" deb nomlandi. Bunda dirijyorlik sinfida talabalarda dirijyorlik bo'yicha kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonining pedagogik va metodik shart – sharoitlari hamda ish usul va shakllari, vositalari haqida fikr yuritildi.

I BOB: Musiqiy ta'lim mutaxassislik fanlari tizimida dirijyorlik predmetining tutgan o'рни.

1.1. Musiqa o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda dirijyorlik faniga qo'yiladigan talablar.

Kelajak bugundan boshlanadi – deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy hamda t'limiy – tarbiyaviy jarayonning qay maqsadga yo'naltirilganligi va undan kelib chiqadigan vazifalarga chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda Respublikamizda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yosh avlod tarbiyasiga, ayniqsa, bo'lg'usi pedagog kadrlarni umummadaniy, g'oyaviy – siyosiy, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni har tomonlama yetuk shaxs va ta'lim – tarbiya ishlari uchun asosiy mas'ullikni his etuvchi va unga tayyor bo'lgan mutaxassis kadrlar qilib yetishtirishga juda katta e'tibor berilayotganli bejiz emas. “Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik – deydi Prezidentimiz I. A. Karimov, - qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir – oqibat baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq” 1/.

Haqiqatda ham ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, estetik madaniyati shakllangan shaxsni tarbiyalash birinchi navbatda ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy, ta'limiy, tarbiyaviy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq. Bu

esa o'z navbatida milliy mafkurani yaratishda ham asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Insonning ma'naviy ongi, dunyoqarashi va madaniy kamolatini

1. I. Karimov. "O'zbekiston XXI – asrga intilmoqda". – Toshkent, - O'zbekiston, 1999 yil. 19 – bet.

shakllanishida adabiyot, san'atning barcha turlari qatorida musiqa san'ati o'zining qudratli ta'sir kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Insoniyat tarixining barcha davrlarida ham shaxs va jamiyat taraqqiyoti uchun ijod qilgan ulug' olim, allomalar, shoir va murabbiylar musiqaning hayotbaxsh kuchi, tarbiyaviy – ta'sirchanlik xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tilgan va uni targ'ib va tashfiq qilishgan, o'zlari ham bevosita musiqa san'ati, uning ilmiy, amaliy va nazariy masalalari bilan shug'ullanishgan.

Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida musiqa tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 7 – yanvardagi "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 – 2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini tayyorlash chora – tadbirlari" to'g'risidagi farmoyishida "Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratish va shu asosda musiqiy ta'limni yanada rivojlantiri, bolalar musiqa va san'at maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, soha uchun o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasining oshirishning samarali tizimini yaratish" asosiy vazifa qilib belgilandi. Bu musiqa maktablari, shuningdek umumta'lim maktablari uchun musiqa o'qituvchilari tayyorlashga ixtisoslashtirilgan Pedagogika Oliy o'quv yurtlaridagi "musiqiy ta'lim" yo'nalishlari oldiga ham o'z ishlariga o'ta jiddiy va ma'suliyat bilan yondashishlarini belgilaydi. Hozirgi kunda musiqa o'qituvchilari yetishtirishga mo'ljallangan pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi "musiqiy ta'lim" yo'nalishlarida musiqa san'ati va o'qituvchilik kasbiga qiziqqan, qobiliyatli yoshlarni to'g'ri tarbiyalab, jamiyatda o'z o'rniga qo'ya bilish ushbu dargohlarda faoliyat yuritayotgan ustoz – murabbiylar, pedagoglardan bu yo'nalishda ta'lim mazmunini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi. Shu bois ushbu yo'nalishda musiqa fanlarini o'qitish, musiqa bo'yicha juda murakkab va tizimli mashg'ulotlarni jalb qiluvchi o'quv mashg'ulotlari jarayonida pedagog – murabbiylar zamon talabi darajasida ish yuritib, o'z vazifalariga jiddiy va ijodiy yondashishlari lozim.

Ma'lumki, musiqa o'qituvchisi tayyorlash o'ziga xos murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Umumta'lim maktablari uchun musiqa o'qituvchilari tayyorlashga ixtisoslashgan

pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi "musiqiy ta'lim" yo'nalishida bo'lg'usi mutaxassislarni nazariy va amaliy bilimlari, ko'nikma va malakalarini hamda kasbiy layoqatlarini Davlat Ta'lim Standartida belgilangan talablar darajasida shakllantirish bu yerga o'qishga qabul qilinayotgan talabalarni boshlang'ich musiqa ta'limi bo'yicha ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishlarini taqazo etadi. Chunki, bu sohada mutaxassislikka ega bo'lish uchun birgina musiqa san'atining nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog'liq bir necha fan sohalaridan zaruriy bilim va malakalarga ega bo'lish talab qilinadi. Bunday fanlar tizimida musiqa nazariyasi, tarixi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili, solfedjio, xor va xorshunoslik asoslari, vokal ijrochiligi, asosiy cholg'u asbobi, cholg'u ansambili kabilar asosiy mutaxassilik fanlari hisoblanadi. Musiqa mashg'ulotlarini olib borish jarayonida ushbu fanlar bo'yicha bilim va malakalar asosiy rol o'ynaydi. Mazkur fanlar qatorida "Dirijyorlik" fani o'ziga xos alohida mavqyega ega bo'lib, u musiqa o'qituvchisining musiqa mashg'ulotlarini uyushtirish va olib borishda o'qituvchi faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi. Chunki, maktab musiqa darslari o'zining tashkiliy – tuzilishi xususiyatiga ko'ra bir necha faoliyatlar negizida olib boriladi va bu faoliyatlar ichida jamoa bo'lib qo'shiq kuylash (xor bo'lib kuylash) yetakchi o'rinni va darsning eng ko'p qismini egallaydi. Jamoaviy ijroni sifat va samaradorlik kasb etishida musiqa o'qituvchisi (ayni paytda xor dirijyori) ning "dirijyorlik" bo'yicha kasbiy tayyorgarligi, bilim va mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dirijyorlik boshqaruvi orqali butun bir sinf jamoasi yaxlit bir organizmga birlashtiriladi, ijroni bir butunligi, badiiy yaxlitligi va emosional ta'sirchanligi ta'minlanadi. Bu esa har bir o'qituvchidan dirijyorlik san'ati bo'yicha zarur bilim va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishlikni talab qiladi.

Dirijyorlik nisbatan kengroq shakllangan san'at sifatida har qanday jamoaviy (xor, orkestr) ijroni boshqarish vazifasini bajarish nuqtai – nazaridan ustunlik kasb etadi. U o'zining paydo bo'lishidan ko'pqirraligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham bu san'at musiqa ta'lim muassasalarida alohida va mustaqil fan sifatida o'rganiladi. Ta'kidlab o'tganimizdek, u boshqa san'at turlariga nisbatan farqli ravishda ijrochilikni boshqaruvchilik xususiyat bilan alohida mavqyeni egallaydi.

Dirijyor kim? U qanday vazifani bajaradi? Dirijyorlikka tayyorlash qanday maqsad va vazifalarni ko'zda tutadi? Bu savollarga baholi qudrat javob berishga harakat qilamiz. Dirijyor – asar musiqasini ijodiy

rivojlantiruvchi, uning ruhi bilan yashovchi va musiqiy obrazni gavdalantiruvchi mashaqqatli, sabr – bardosh talab qiluvchi, mas’uliyatli ksbdir. Bir qaraganda unchalik murakkab emasdek, oson ko’rinadigan dirijyorlik san’atining naqadar murakkab ekanligini hamma ham tushunib yetavermaydi. Dirijyorlikka tayyorlash va uning eng muhim qonun – qoidalari, harakatlar (qo’l, gavda, bosh) imo – ishoralar (mimika) shuningdek dirijyorlik texnikasini egallash orkestr yoki xor ijrosini nafaqat boshqarishni, balki, uning o’ziga xos sir – asrorlarini ham bilish, asar g’oyaviy – badiiy mazmunini chuqur his etish, o’z tasavvurida uni yaratib, amalda uni gavdalantirishga erishishga intiluvchi harakat, hissiyot va badiiy talqinni mujassamlashtiruvchi xususiyatlarni ifoda etadi.

Musiqqa o’qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash, albatta professional mustaqil kasbiylik talablaridan farq qiladi. Bunga yuqorida aytganimizdek, o’qituvchilik kasbini va musiqqa darslarini mazmun va mohiyati nuqtai – nazaridan qarash o’zrinli bo’ladi. Ya’ni, musiqqa o’qituvchisi professional dirijyor sifatida emas musiqqa darslarida xor ijrosini boshqarish layoqatiga ega bo’lgan dirijyor sifatida namoyon bo’ladi. Bunda o’qituvchi – dirijyor birinchi navbatda bolalar xor jamoalarini tuzilishi xususiyatlari bilan birga ularning ovoz imkoniyatlarini nazariy va amaliy metodik asoslarini yaxshi bilishi kerak bo’ladi. Chunki, umumta’lim maktablarida har bir sinf alohida uyushgan bir xor jamoasi sanaladi. Bu jamoalarning xor rahbarlari va dirijyori esa bevosita musiqqa o’qituvchisining o’zidir.

Xor rahbarining (dirijyorning) kuylovchi xor jamoasi bilan o’zaro muloqatida (xor asarlarini o’rganish, kuylash, vokal – xor mashqlari jarayonida) uning dirijyorlik boshqaruvi asosiy vosita bo’lib, xor ijrosini g’oyaviy – badiiy mazmunli chiqishi, muallif fikrlarini badiiy buyoqlarda aks

ettirishda dirijyorning aniq ko'rsatmalari va obrazli harakatlari yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Tajribali dirijyor – pedagoglarning va professional xor dirijyorlarining pedagogik va ijrochilik faoliyatini bevosita kuzatish, shuningdek, dirijyorlik san'atiga oid o'quv, metodik adabiyotlarni o'rganish, o'z kasbiy faoliyati nuqtai – nazaridan dirijyorlik faniga ijodiy munosabati, mashg'ulotlar jarayonida o'z – o'zini nazorat va tahlil qilib borish bo'lg'usi mutaxassislariga katta foyda keltiradi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida “musiqiy ta'lim” yo'nalishining o'quv rejasida ushbu fanni to'rt yil davomida o'qitilishi ko'zda tutilgan. Dirijyorlik fanining namunaviy dasturida ushbu fanning o'qitishning maqsad va vazifalari quyidagicha ifoda etilgan.

- Dirijyorlik kursining asosiy maqsadi bo'lg'usi musiqa o'qituvchilari talabalarga dirijyorlik sirlarini o'rgatish jarayonida ularni jamoaviy ijrochilikni boshqarishga tayyorlash bilan birga, ularga ma'naviy, mafkuraviy tarbiya berish, g'oyaviy, badiiy – estetik tarbiyalash, ularning badiiy ijrochilik mahoratini (xor, vokal ijrochiligi bo'yicha) o'stirish, asosiy va eng zarur dirijyorlik uquvi va ko'nikmalarini shakllantirish, o'zbek qardosh, chet el kompazitorlari tomonidan yaratilgan eng yaxshi xor asarlari, shuningdek xor ijrosiga moslashtirilgan, qayta ishlangan xalq qo'shiqlari bilan yaqindan tanishtirib borish, turli janr, xarakter, mavzu va turli tarkib, tipdagi xorlar uchun mo'ljallangan asarlarni professional darajada tahlil qilaolish va ularga dirijyorlik qilaolish malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Dirijyorlik kursi fan sifatida o'quv mashg'ulotlari jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha tizimli o'quv ishlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

- Talabalarda milliy musiqamizga hurmat, muhabbat, uni o'rganishga qiziqishni, shu orqali ularda milliy ong, milliy g'oya, milliy mafkurani shakllantirish, ularni Davlat ta'lim Standarti talablariga javob beraoladigan yuqori malakali mutaxassilar qilib yetishtirish;

- Talabalarni bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi, xor rahbari va dirijyori sifatida badiiy didini rivojlantirish, xor asarlarining badiiy qimmatini va ularning ijrosini boshqarish, baholay olishga o'rgatish;

- Dirijyorlikning eng asosiy ko'rsatmalari, ishoralari, harakatlar turlari, dirijyorlik texnikasining sirlarini o'rgatish, asarlarga dirijyorlik (mustaqil) qilaolish malakalarini hosil qilish;

- Musiqa pedagogikasining tizimlilik, izchillik, ilmiylik, davomiylik, oddiydan murakkabga o'tish, individual yondashish, guruh va jamoa bilan muloqat o'rnatish kabi didaktik tamoyillarga amal qilishni o'rgatish;

- Badiiy ijroni mukammal variantini oldindan eshita bilish va unga erishish ustida rejali ish olib bora olishga o'rgatish;

Dirijyorlik sinfidagi mashg'ulotlar tizimida fan bo'yicha talabalar bilimi va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- Dirijyorlik sxemalari, harakatlari. Ijroni boshqarishni yordamchi unsurlari bo'yicha puxta bilim va malakalarga ega bo'lish va uni amaliyotda qullay olish uchun eng avvalo quyidagi eng zarur jihatlarni yaxshi o'zlashtirishi lozim;

- Yaxshi rivojlangan qo'shiqchilik qobiliyati va uquvga ega bo'lish, ashulachilik nafasi, ovoz tayanchini yaxshi his eta olish, "auf takt", "ijroni boshlash", "ijroni davom ettirish", "ijroni tugatish" kabi dirijyorlikning bosh elementlarini puxta o'zlashtirishga erishish;

- Dirijyorlik harakatlarini ifodali va ta'sirchan bo'lishi, panja va barmoqlarning mayin, egiluvchan (plastik) va nafis harakatlanishiga erishish;

- Jo'rli dinamik belgilar va asar partiturasida uchraydigan belgilarni, ovoz harakatchanligi (ligato, non ligato, stakkato, fermato) va boshqa temp o'zgarishlarini aniq ko'rsatib beraolish;

- Jo'rsiz (akapella) asarlarni va jo'rli asarlarni xor partiyalariga bo'lib o'rgataolish va ularni ijrosini tahlil qilib, badiiy yetuk ijroga erishish;

- Xorning turlari (maktab xor jamoalari – kichik, o'rta, katta yoshdagi bolalar xorlari, aralash to'rt ovozli xor) va ularning imkoniyatlarini, xususan, bolalar xorini tashkil qilish yo'llarini, bolalar ovoz diapozonlarini, ularning psixologik, fiziologik xususiyatlarini yaxshi bilgan bo'lishi va shunga ko'ra xor uchun repertuar tanlay bilishi lozim;

- qo'shiqchilik nafasi, badiiy ijroni ifodaviy vositalar – diksiya, intonasiya, registr, tessituralarni aniq bilishi, asarlarni xor imkoniyatlariga ko'ra transpozisiya qilaolishi malakalariga ega bo'lishi lozim;

- dirijyorlik fani musiqa nazariyasi va amaliyotiga bog'liq fanlar, chunonchi, solfedjio, vokal ijrochiligi (xorda kuylash vokal kuylashga asoslanadi), cholg'u ijrochiligi (fortepiano) musiqaning nazariy asoslari, musiqa asarlari tahlili, musiqa tarixi, musiqa o'qitish metodikasi, xor va xorshunoslik asoslari kabi fanlar bilan uzviy bog'liqligi tufayli ushbu fanlarga tegishli bilimlar bilan uyg'un holda dirijyorlik mashg'ulotlarida talabalarning ushbu fanlar bo'yicha bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalariga tayaniladi. O'z navbatida talabaning ta'kidlab o'tilgan fanlar bo'yicha bilimlari amaliy faoliyatda mustahkamlanib, takomillashib borishiga ahamiyat beriladi.

Xor madaniyatining atoqli tashabbuskori K.A. Olxovning ta'biricha dirijyorlik - musiqaning harakat va imo – ishoralari tiliga o'ziga xos tarjimai vositasidir.

Xullas, bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlashda dirijyorlik sinfida amalga oshiriladigan o'quv mashg'ulotlari jarayoni bo'lg'usi musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha musiqiy, nazariy bilimlarni o'zlashtirish va amalda qo'llash maqsad va vazifalarini amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi.

O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda o'qituvchi – dirijyorda artistlik iqtidori, qobiliyati, musiqiy eshitish, xotira va tasavvur, timperament, ohang sezgirligi, musiqiy shakl va ansambillikni his qilish, qo'lning tabiiy egiluvchanligi va yuzning ifodaviy mazmundorlik ko'rinishlari kabi bir qator sifatlarga ega bo'lishi darkor. Musiqa g'oyasini ifodalash, musiqiy qiyofa (obraz) yaratish uchun ijrochi - san'atkorning ijodiy potentsiali – tasavvurini, fantaziyasini, tafakkurini yordamga chaqirish kerak. Akademik B.M. Teplov yozganidek, “faqat ma'nan yetuk, ta'sirchan odamgina to'laqonli musiqachi bo'laoladi. Musiqa odamlar o'rtasidagi muloqat vositasidir. Musiqa bilan tillashish uchun nafaqat musiqiy tilni bilish, balki, o'z fikr, his – tuyg'ularini ifoda eta olish iqtidoriga ega bo'lish lozim”.

Biz aytib o'tganimizdek dirijyor xor yoki orkestr jamoasini yaxlit bir yakkaxon xonanda yoki cholg'u asbobidek his qilib musiqiy asarning jamoa tomonidan musiqa ijrosini boshqaradi. Shuning uchun ham u har bir cholg'u asbobining va xonanda ovozining ohangdorligini, diapozonini, uning ijrochilik imkoniyatlarini, shu bilan birga o'zining nimalarga qodir ekanligi yaxshi bilishi zarur.

Dirijyorning mas'uliyati shundak, u ijrochi sifatida bastakor va tinglovchi o'rtasida vositachi hamda ularni amalga tadbiq etuvchi tashkilotchi hisoblanadi. Shunday ekan dirijyor – o'qituvchi tayyorlash ishida faqatgina ma'lum asarlarga dirijyorlik qilish bilan cheklanmasdan asarni hoyaviy – badiiy mazmuni, shakli, janri, tuzilishi, xususiyatlari,

qanday xor uchun yozilganligiga, tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi, o'quvchilarga o'rgatish uchun to'g'ri kelishi, murakkablik darajasi kabilarni e'tiborda tutishi va bu borada talaba bilan maxsus shug'ullanib turish kerak bo'ladi.

Musiqqa o'qituvchisining dirijyorlik faoliyati xor ijrosini boshqarishda o'zining aniq kasbiy mahoratini oshirishini talab etadi. Bu esa uning maktabdagi o'qituvchilik amaliy ishida qo'l keladi. O'qituvchining vokal – xor bo'yicha ishi undan imo – ishora, pantomimo, shartli harakatlarni badiiy ifodalarda tadbiiq eta olish mahoratiga ega bo'lishlikni talab qiladi. Bularning hammasi bo'lg'usi pedagog – xormeystr dirijyor va xor rahbarining kasbiy mahoratida asosiy sifatlar hisoblanadi. Dirijyorlik fanining esa eng avvalo ushbu sifatlarni dars jarayonida shakllantirishni asosiy maqsad va vazifalarni tashkil etadi.

1.2. Dirijyorlik fani bo'yicha o'quv faoliyatining mazmuni.

Dirijyorlik musiqiy ta'lim hamda ijrochilikning asosiy va muhim shakli bo'lib, uning mazmuni va mohiyati keng ko'lamli jarayonni o'zida aks ettiradi.

Dirijyorlik san'ati va kasb sifatida boshqa musiqqa mutaxassisliklari orasida eng murakkab va serqirraligi bilan ajralib turadi. Har qanday musiqachi yakkaxon o'zining mas'ulligini ma'lum bir cholg'u asbobi yoki ovozi orqali ifoda etish yoki mahoratini ko'rsatishi mumkin. Jamoaviy ijrochilikda esa (ansambil, xor, orkestr) mas'uliyatini o'zaro bo'lishadilar.

Dirijyorlikka esa o'zgacha talab qo'yiladi, ya'ni uning cholg'u asbobi butun bir jamoani boshqaradi. Haqiqiy musiqachining orzusi va yetakchi quroli uning asbobidir. Dirijyorning asbobi esa bu xor yoki orkestr

hisoblanadi. Shuning uchun ijrochi jamoani jonli, yaxlit fikrlovchi, musiqaning emosional ta'sirini his etuvchi, yaratuvchan musiqachi – san'atkor, rang – barang va ko'p ohangli yaxlit bir asbob deb bilishi kerak. Dirijyor xor ijrochilari oldida bo'ladimi yoki tomoshabinlar oldida nafaqat o'zi uchun, balki, o'zi boshqarayotgan jamoa ijrosi uchun ham javobgardir – degan edi mashhur dirijyor pedagog A.P. Ivanov Radkevich.

Dirijyorlik san'ati musiqiy asarlarni ijodiy izohlashdan iborat bo'lib, u o'zining badiiy maqsadlarini harakatlar, ifodali mimikalar bilan jamoaga beraolishi va shu o'rinda ularni ijrosini namoyish etaolishi zarur.

Dirijyorlik mas'uliyati shundaki, u ijrochi sifatida badiiy asar bilan tanishar ekan uning mazmunini his qilib, uni o'z ichki dunyosidan o'tkazadi.

Hozirgi kunda musiqa o'qituvchilarining dirijyor – xor tayyorgarligi tizimi yetarli darajada shakllangan. Bu davr maxsus fanlar bog'liqligi davri bo'lib, (dirijyorlik, uni o'qitish uslubi, xorshunoslik, xor sinfi, xor aranjirovkasi, vokal ijrochiligi) ular orasida xor dirijyorligi asosiy hisoblanadi.

Umumiy g'oyaviy – tarbiyaviy va musiqiy – ta'limiy vazifalariga muvofiq bu kurs talabalarining musiqa o'qituvchilari, xor dirijyorlari sifatida tayyorgarligiga imkoniyat yaratadi.

“Xor dirijyorligi” mashg'ulotlari tahsil olayotgan talabalarning musiqiy qobiliyatini o'stirish (musiqiy eshitish qobiliyati, his etish, ritm, xotira, musiqiy tafakkur, artitizm) maktabda vokal – xor ishlarini amalga oshirishda kasbiy bilim va malakalarni shakllantiradi.

O'quv ishlarining asosiy turlari: asar musiqasi ohangdorligini o'zlashtirish, xor ovozlari va akkordlarni kuylash, fortepianoda partituralarni ijro etish, fortepianoda konsertmeystr ijro etayotgan xor asarlariga dirijyorlik qilish. Xor jamoalari bilan ish olib boradigan musiqachi o'qituvchilar

tajribasi shuni ko'rsatadiki, dirijyorlik sinflaridagi pedagoglarning eng asosiy vazifalari bo'lg'usi xor dirijyorlarini xor ijrochiligini erkin boshqara oladigan barcha bilim va malakalarga ega qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi dirijyorlik sinfidagi ta'limiy maqsadlar faqatgina musiqachi – xor dirijyorli tayyorlashdan iborat bo'lib qolmay, balki bolalar bilan ishlay oladigan, ularni musiqa san'ati, qo'shiq ijrochiligiga qiziqtraoladigan, vokal – xor ishlarini biladigan o'qituvchilarni tayyorlashdir. Mashg'ulotlar davomida talaba faqatgina dirijyor bo'lib emas, uning pedagogik mahorati ham shakllanib boradi.

O'qituvchi bo'lgach, u xor ijrosi jarayonida mashg'ulotga yaxshi ta'sirchan kayfiyat beraolishi bilan birga o'quvchilarga ularni o'rab turgan muhitdagi musiqa mazmunini to'g'ri baholash va shunga munosib mazmundor kuylashga o'rgatadi. O'qituvchilarga xos bo'lgan e'tibor, kuzatuvchanlik, tafakkur, mustaqillik kabi sifatlarni tarbiyalashda "dirijyorlik" sinflari katta imkoniyaga ega. Maktab o'qituvchisining o'quvchilar oldidagi badiiy ijrochilik, ijroni boshqarish, tashkil etishdagi bosh vazifasi o'quv materialiga maxsus va ijodiy yondashishni talab etadi. Bu esa dirijyorlik kursi mazmunini dirijyorning musiqa o'qituvchisi sifatida kelajakda kasbiy faoliyatida kelib chiqishni anglatadi.

Musiqa o'qituvchilarining dirijyorlik faoliyatiga tayyorgarligida yana bir jihat bu san'atni anglashga o'rgatish, bu asarni g'oyaviy – badiiy mazmunini mustaqil ravishda ochib beraolish ko'nikmasini anglatadi. Nota matnini vokal o'zlashtirish tovush balanligi, ritm, tembr, nafas kabilar xor ijrochiligida xor rahbari – dirijyorning doimiy diqqat markazida bo'lishi lozim.

Dirijyorlik fani o'qitilishida yana bir pedagogik vazifalardan bu bo'lg'usi o'qituvchining dirijyorlik texnikasi, dirijyorlik postanovkasi va manual (qo'l) texnikasini yaxshi o'zlashtirishga erishishi hisoblanadi.

Dirijyorlik harakatlari turli odamlarda turlicha bo'ladi, ya'ni bazilarda harakatlar yengil, erkin, ortiqcha zo'riqishsiz, ayrimlarda esa harakatlar qiyinchilik bilan, katta kuch bilan og'ir kechadi.

Musiqiy g'oyani anglash va uni dirijyorlik harakatlari bilan gavdalantirish bu dirijyorlik jarayonining bir qismi bo'lib, bir tomondan dirijyorning ichki eshitishini dirijyorlik harakatlariga mos holda o'rnatish bo'lsa, ikkinchi tomondan haqiqiy ovozning, ohangning dirijyor harakatlari bilan mos kelishidir.

Musiqqa o'qituvchisi – dirijyor, ya'ni bolalar xor jamoasi rahbari oldida bir talay xor bo'lib kuylashga tayyor bo'lgan bolalar bilan ishlashdek og'ir mehnat turadi. Bunday jamoani boshqarish birinchi navbatda ijrochilarni xor ijrochiligiga ko'niktirishni talab etadi. Buning uchun esa inson ovozi tabiatni, uning imkoniyatlari va ijobiy hamda kamchilik tomonlarini yo'llarini bilishni, faqat asar o'rgatish bilan cheklanib qolmay, bolalarni ovozlarini soz, ansambil, ritm, intonasion xususiyatlarini ishga sola bilishi kerak.

Hyech qanday amaliy tajriba amaliyotiga ega bo'lmagan, lekin nazariy jihatdan yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar maktabga kelgach jamoa bilan ishlash, ular bilan muloqat qilishga qiynaladilar. Ular o'quvchilar bilan repetisiya ishlari texnikasi, metodikasini va o'qitishda yaxshi natijaga erisha olmaydilar. Shuning uchun ham “dirijyorlik” faniga repetisiya ishlari va usullari, amaliy tajribalar ham kiradi.

Talabalarning mutaxassislik darajasini ko'tarishda mustaqil topshiriqlar, mustaqil ish va vazifalar, talabaning o'z ustida mustaqil ishlashi katta o'rin tutadi. Dirijyorlik kursi bo'yicha majburiy bilim va malakalarni

o'zlashtirishda fanlarning o'zaro bog'liqligi katta rol o'ynaydi. Masalan, “xor va xorshunoslik asoslari”, “xorshunoslik”, “pedagogik amaliyot”, “vokal ijrochiligi” fanlarda egallangan nazariy va amaliy bilimlar xor bilan ishlash amaliyotida qo'l keladi. Shuningdek, dirijyorlik maxsus cholg'u asbobi, aranjirovkalar bilan ham o'zaro uyg'unlikni talab qiladi. Dirijyorlikka tayyorlash ko'p qirrali va tizimli jarayonni talab qiladiki, quyida kursni o'qish davomida musiqa o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarga umumlashtirilgan holda ko'rib o'tamiz:

1. Musiqiy ta'sirchanlik vositalariga oid bilimlar. U o'z ichiga musiqiy nutq elementlari, ohangdorlik, tematika, kuy, lad, ohangli harakatlar turlari, musiqiy rivojlanish tamoyillari, asarni o'rganish rejalarini o'z ichiga oladi.

Ohanglar almashish usullari, taqqoslash, modulyasiya qilish, uyg'unlik, metr, o'lchov, ritm, faktura (ovozlarni birlashtirish usullar), janr qonuniyatlari ham shu qismga kiradi.

2. Xor san'atining o'ziga xos ijrochilik xususiyatlari va qonuniyatlariga doir bilimlar. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin.

A) xor ijrosiga ma'no beruvchi vositalar (xorning sadolanishi – tembiri, xorning boshqa jihatlari bilan moslashuvini ifodalovchi xususiyatlar, tembr farqlari, vokal tovush hosil qilishing zaruriy funksiyalari, ijroni matn g'oyaviy – badiiy mazmuniga mosligi).

B) xor jamoasining texnik imkoniyatlari (xor turi, tarkibi, kuylovchi ovozlarning tabiati, diapozoni, asar tessiturasini) ansambil, soz, xorning tuzilishi qonuniyatlari (ohangdorlik, diksiya, orfo epiya qoidalari), ripitisiya boshlanishiga dirijyorning o'zining xor asarlarini mustaqil o'zlashtirishi.

3. Dirijyorlik qilish mahoratini ifodalovchi vositalarga oid bilimlar:
- temp (sur'at) ning ma'nodorlik va obrazlilik vazifasi, agogikalar,

jo'shqinlik va frazirovka (vokal nutq turlanish xususiyatlari), shtrexlar (turli usullarning ma'no mazmun kasb etishi, tovush hosil qilish va chiqarish usullari – yuqori nuqta (kulminasiya), aniqlab olish (umumiy qisman).

4. Maktab xor jamoasining (sinf jamoasining) turli yosh bosqichidagi o'quvchilar bilan ishlashda o'ziga xos ish yuritish yo'llari to'g'risidagi bilimlar bunda har bir sinf ijro imkoniyatlariga mos repertuar tanlash, bolalar ovozinig o'ziga xos xususiyatlari, xorni kamerton bo'yicha asar tonalligiga sozlamoq, vokal – xor mashqlarini to'g'ri tanlash (variantlarning maqsadga muvofiqligi va ketma – ketligi, ijrochilarni yosh va ovoz imkoniyatlariga mosligiga e'tibor berish), intonasion kamchiliklar sababini aniqlash, uni bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan ishlar, vokal ovoz hosil qilish va chiqarishga oid kamchiliklar, xormeystrning ansambil, soz va diksiya ustida ishlashi, dirijyorning repetisiya ishlarida jamoa bilan ijodiy muloqat qilaolish mahorati.

5. Tushungan holda manual (qo'l harakatlari) texnikani shakllantirishda zarur bo'ladigan bilimlar: - dirijyorlik jarayoni haqida axborotni joy – harakat belgilari bilan yetkazish vazifalari. Dirijyorlik apparatini o'rnatishning asosiy tamoyillari (reja, pozisiya (vaziyat))

- musiqaning metro – ritmik tuzulmasi, metro – ritmik harakatlar tuzilish qonuniyatlari, metro ritmik harakatlarning guruhlanishi, ularning maqsadga muvofiqligi.

Dirijyorlik sifatida olib boriladigan mashg'ulotlarda talabalarni dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni bir qator talablarni shart qilib qo'yadi. Bular:

- musiqaviy – mazmun va ma'noga erishish vositalari orqali asarning g'oyaviy – badiiy mazmunini ochib berish malakalarini egallashga oid ishlar;

- muallif (shoir va bastakor) fikrini musiqiy ijrochilik davomida tushungan holda talqin eta olish;

- partituraning o'rganish davomida vokal intonatsion o'zlashtirishda asarlarni ichki tuyg'u bilan his etish malakalarini egallash;

- fortepianoda ovoz yo'llari va partituraning ijro etish;

- repetisiya jarayonini to'g'ri rejalashtirishda vokal – xor ishlarini to'g'ri qo'llash;

- turli davrga oid va turli uslubdagi asarlarni o'rganish va zamonviy xor asarlarini tushunish, farqli jihatlarini anglash, o'z shaxsiy xor asarlari repertuarini boyitib borish, xor aranjirovkasi, qayta ishlash bo'yicha zarur bilim va malakalarni egallash;

- dirijyorlik texnikasini asarning badiiy obrazini berish vositasi sifatida egallash va xor sadosini boshqarish malakalarini tarkib toptirish;

- musiqiy asarni jamoa bo'lib o'zlashtirish va ijro etish jarayonini boshqarishga o'rganish, ovozlarni sozlashda va to'g'ri tarbiyalab borish;

- xor jamoasini konsertlar bilan chiqishlarini tashkil etishga jamoani jalb qilish, o'quvchilarda zarur ishtiyoq va kayfiyatni vujudga keltirish, sahnada o'zini tutish, ijro paytida ovozlarni to'g'ri ishlatishga o'rgatish;

Maktabdagi amaliy faoliyatda pedagog va talaba muntazam muloqatda – bog'lanishda bo'lish kerak. Bu esa dirijyorlik bo'yicha yakka mashg'ulotlar shaklida bo'ladi. Dirijyorlik bo'yicha yakka mashg'ulotlar talabaning musiqiy bilimini oshirishga, kuzatuvchanligi va o'ziga tegishli xulosalar chiqarib o'z mahoratini oshirib borishga, irodasini mustahkamlashga va musiqiy tafakkurini to'g'ri shakllanishga qulay sharoit yaratadi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlash musiqa fanlarining barchasi mazmunida o'z aksini topib borishi lozim. Dirijyorlik va xor va xorshunoslik fanlarini amaliy

mashg'ulotlari jarayonida maktabda xor jamoasi bilan olib boriladigan o'quv – tarbiyaviy, vokal – xor ishlariga mana shu davrda zamin yaratilib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki xor ijrochiligi va dirijyorlik bir faoliyat negizida namoyon bo'ladi. Xo'sh bu o'rinda bo'lg'usi o'qituvchi qanday bilim, malaka va tushunchalarga ega bo'lishi lozim. Shu o'rinda ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni jamoa bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatish musiqa o'qituvchisining, ayni paytda xor rahbari va dirijyorning zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Ma'lumki qo'shiq kuylash san'ati vokal – xor malakalariga ega bo'lishlikni talab etadi va quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

1. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish yoki turish;
2. To'g'ri nafas olish, uni tejamli sarflash;
3. Ohangdoshlikni his etishga erishish;
4. Vokal ovoz hosil qilish, sof intonasiyaga erishish, ifodali kuylash;
5. O'rtoqlari, o'qituvchi ovoziga jo'rnavoz bo'lib musiqani eshitib kuylash;
6. Jamoa (xor) bo'lib qo'shiq kuylash oldidan va kuylash jarayonida musiqiy nazariy bilimlarga oid bir qancha vazifalarni amalga oshirishi lozim. Chunonchi:
 - qo'shiq haqida dastlabki emosional taassurotlar hosil qilish;
 - qo'shiqni musiqiy – nazariy tahlil qilish;
 - qo'shiqni to'liq partiturasini bilan tinglash;
 - qo'shiqni kichik bo'laklarga bo'lib o'rgatish;
 - qo'shiq so'zlari ustida ishlash;
 - qo'shiqni dinamik belgilari, badiiy ta'sirchanligi ustida ishlash;

Ushbu vazifalarni hisobga olgan holda qo'shiq kichik bo'laklarga bo'lib o'rgatiladi. So'ngra bir butun qilib frazalar, jumlar bo'yicha qo'shiladi. Qo'shiqni bir butun kuylaganda o'quvchilar o'qituvchining ijrosiga suyanadilar. O'quvchilarda vokal – xor malakalarini shakllantirish jarayoni bir hil kechmaydi. Bu jarayon ma'lum bir qonuniyatlarga bo'y singan holda maqsadga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Xor bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatishning dastlabki davri (boshlang'ich sinflarda) kuylash malakalarini shakllantirish asosiy uch bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1. Oddiy elementar kuylashga o'rganishga erishish;
2. Oddiy mashqlarni mustahkamlash va rivojlantirish;
3. Hosil qilingan malakalardan samarali foydalanish;

Mana shu bosqichdan o'quvchilar sof, toza va ifodali, dinamik belgilarga rioya qilgan holda, o'qituvchi ovozigacha, dirijyorlik ishoralariga amal qilib, musiqani eshitib kuylashga harakat qilishlari va asta – sekinlik bilan bo'lsada bu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borishlari o'qituvchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim.


Birinchi bosqichdagi vazifalarni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining ushbu malakalarni bir – biriga bog'liqligini ta'minlashga erishishi muhim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning tovush pardasiga og'ir tushmasligi va ovoz charchab qolmasligi uchun qo'shiq aytish faoliyatini almashtirib turishi metodik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda asosiy ko'pchilik o'quvchilarning kuylash malakalari barcha qirralarida ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Nafas yo'llarida erkinlik hosil bo'ladi, ovoz tembiri yorqinlashadi, musiqiy xotira, eshitish, ladni his etish qobiliyati, diqqati rivojlanadi.


So'ngi bosqichda kuylash malakalarining rivojlanganlik darajasi yuqori bo'ladi. Jarangdorlik sof va ifodali bo'lishi, ovoz tembr sifatining mukammallashuvi, diapozoni sezilarli kengayishi, kuylashda nafas olish va uni tejimli sarflash kabilarda o'sish holatlari ruy beradi. Ayniqsa dirijyorlik ko'rsatmalari “diqqat”, “auf takt”, “ijroni boshlash”, “ijroni tinglash” larga rioya etib kuylashga o'rgatish, nafasni rejagi solish muhimdir. Bolalarning nafas hajmining imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashq va qo'shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo'yilishi ham yaxshi natija beradi.

Xor bo'lib qo'shiq kuylashga o'rgatishda o'qituvchi o'quvchilarni o'zining dirijyorlik harakatlariga muvofiq kuylash malakalarini shakllantirish uchun alohida mashqlar tanlashi va ularni bir necha temp variantida kuylatirishi, uni har dars oldidan takrorlatishi, shuningdek har xil dinamik belgilar - p (piano – ohista, mayin), mp – (o'rtacha yumshoq), f – (forte – qattiq keskin), ff – (fortissimo – juda qattiq), pp – (pianissimo – juda ham sekin, mayin) va hokozo.

Qo'l harakatlariga qarab o'quvchilar non legato (bir – biriga bog'lanib ijro etilishi), stakatto – (uzib - uzib ijro etish) kabilarni tushunib kuylashlari, shuningdek (krishendo - ijroni sekindan qattiq kuylashga kuchaytirib borish) (demuniendo – qattiqdan sekinlatib borish)



crescendo,



diminuendo,

kabi ijrolarni sezib, unga rioya etib kuylashga erishishlari o'qituvchining doimiy diqqat markazida bo'lishi lozim va bular ijroni badiiy yetuk va emosional ta'sirchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rinadiki, maktabda musiqa o'qituvchisi ko'p qirrali faoliyat mujassamligini talab etadi va oliy ta'lim tizimida talabalarni maktab faoliyatiga tayyorlashda, ayniqsa, musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida, ta'lim mazmunida ularning musiqa o'qituvchisi, xor rahbari, xor dirijyori sifatidagi kasbiy tayyorgarliklariga, ularda bularga oid bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirib borilishiga e'tibor berib borish kelgusida ta'lim mazmunini boyib, yuqori sifat va samaradorlik kasb etishini kafolatlaydi.

II BOB: Dirijyorlik fani bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy tuzulish xususiyatlari.

2.1. Dirijyorlik mashg'ulotlarida o'quv jarayonining asosiy bosqichlari.

Dirijyorlik sinflarida olib boriladigan har bir alohida mashg'ulot darsda bajariladigan vazifa, o'rganiladigan asar yoki uning qismlari, (asar, nota yozuvi. partitura) talaba bilan ish olib boriladigan postanovka, talabaning tayyorgarlik darajasi, kamchilik va tugallanmagan ishlar bilan o'zaro farqli va umumiy jihatlari bo'ladi. Bularni bajariladigan ishning ta'limiy xususiyatlariga ko'ra quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Musiqiy asarni (xor asarni) fortepiano yordamida o'rganish va talabaning asar ashula yo'lini, agar u ikki, uch, to'rt ovozli bo'lsa barcha ovoz partiyalarini yodlashi va imkon qadar partituraning o'rganishi bo'yicha mustaqil (o'qituvchi yordamida va o'zi darsdan tashqari vaqtda) ishi.

2. Musiqa asari xor partiyasi ovozlari solfedjio uslubida, so'ngra vokal kuylashga erishish, fortepianoda ovoz partiyalarini chalib nota matni bo'yicha o'z bilimini tekshirib borish;

3. Musiqiy (xor) asarini nazariy va amaliy (dirijyorlik qismida amal qilinadigan elementlar) jihatdan tashkil qilish va mashg'ulot jarayonida e'tiborda tutish;

4. Dirijyorlik harakatlari texnikasini takomillashtirib borish, bunda dirijyorlikni ifodali, aniq, tushunarli va jozibali bo'lishi nazarda tutiladi;

5. Asarga dirijyorlik qilishda vazifalarni oldindan aniq belgilash, konsertmeystr jo'rligida dirijyorlik qilish;

6. Har bir darsda maktab repertuariga tegishli alohida asarlar bilan ishlashi, ya'ni maktab faoliyatiga tayyorlanib borishi, o'zini maktab xor jamoasi rahbari – dirijyori sifatida his etib zarur ko'nikma va malakalarni egallab borishi;

7. Asar musiqani (xor ovoz partiyalarni) yozuvga qarab o'qishi (qog'ozdan chitka yoki listga) va nota yozuviga qarab dirijyorlik qilishga erishgach, geyoki xorga dirijyorlik qilayotgandek, nota matnisiz dirijyorlik qilish malakalari ustida ishlash.

Taniqli pedagog dirijyor L.M. Andriyeva yozganidek “dirijyorlik sinfida olib boriladigan har bir dars jonli ijodiy jarayon bo'lib, u qotib qolgan yoki bir andozaga tushib qolgan jarayon bo'lishi mumkin emas. Uning maqsadga muvofiqligi, vazifasi, tuzilishi va mazmuni pedagog tomonidan belgilanishi, kuzatib borilishi lozim”.

Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan mashg'ulotni tashkil etish, olib borish, talaba bilan individual ishlashida quyidagi jihatlarga amal qilish shart:

- o'quv jarayoni mazmunining barcha qismlarini umumiy maqsad yo'lida birlashtirish, ya'ni bo'lg'usi o'qituvchini xor dirijyorligi bo'yicha pedagog faoliyatga tayyorlash (professional dirijyor yoki orkestr dirijyori emas);

- mashg'ulotlar uchun belgilangan vazifalarni tugallanganligiga erishish (bunda har qism, elementlar bilan ishlash hajmi, murakkablik darajasi, talabani iqtidor va qobiliyati hisobga olingan bo'lishi lozim);

- mashg'ulotlarda talaba tomonidan kerakli bilim va malakalarni egallashning davomiyligi, tizimliliigi, oddiydan murakkabga tamoyillariga amal qilishi, o'tilgan va keyingi bosqichdagi vazifalar yoki egallanadigan bilim va malakalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish bo'lishligi;

4. mashg'ulot davomida fanlararo bog'liqlik, aloqadorlikni amalga oshirish va undan o'rinli va unumli foydalanish, unga talabani ham o'rgatib borish (asarlarni o'rganish va dirijyorlik qilishda musiqa ijrochiligi va fortepiano, musiqa nazariyasi, vokal ijrochiligi, solfedjio, musiqa asarlari tahlili kabilar nazarda tutilmoqda).

1. O'rganilayotgan asar g'oyaviy –badiiy mazmunidan oqilona va o'rinli foydalanish;

Dars jarayonida pedagogik maqsad va vazifalar aniq bo'lishi bunda quyidagi jihatlar alohida e'tiborda bo'lishi lozim.

- xor asarining janrini, harakterini, g'oyaviy – badiiy mazmunini, turini, ko'rinishini aniqlash va shunga muvofiq vazifalarni belgilash;

- har bir element ustida ishlash uslub shakl va vositalarini belgilash;

- musiqiy mazmunni, obrazni badiiy gavdalantirish (real, hayotiyliigi) ustida ishlash.

Mashg'ulotning rejasini tuzishda nimalarga e'tibor qilish kerak. Bunda umumiy pedagogikaning nazariy va amaliy metodlariga tayanish mumkin:

- uy vazifasini tekshirish;

- fortepianoda talabani xor ovozlari va partitura ustida ishlash;

- ovoz partiyalarini, akkordlarni kuylash;

- suhbat, savol – javob tarzida asarni tahlil qilish;

- asarga ton berish (major, minorning asosiy uchtovushligini kuylash) va dirijyorlikka (kuylashga) sozlanish;

- musiqiy obrazni, tasvirni, mazmunni badiiy gavdalantirish ustida ishlash;

- darsga yakun yasash, bajarilgan ishlarga qisqacha baho berish, kamchiliklar va yanada e'tibortalab holatlarni izohlash;

Darsda uyga vazifa berish va uning bajarilishi bo'yicha maslahat va tavsiyalar asarni to'liq va mukammal o'rganish va maktab repertuariga mansub asarlarni fortepianoda o'rganish, nota yozuvi, partitura, ovoz partiyalarni yod olish va dirijyorlik qilishda muhim elementlarni aniqlash bo'yicha tanlanadi. Asarni tahlil qilish jarayonida asarning asosiy g'oyasini (she'riy matnga kuy ijod qilinadi va kuy she'r g'oyaviy – badiiy mazmuniga mos bo'lishi uning badiiy asar sifatida qiymatini darajasini belgilaydi) va mazmunini tushuntirishga, badiiy, obraz, qiyofa, ko'rinishga tavsif berishga erishish va asarning o'ziga xos xususiyatlarini savol va javob tariqasida aniqlash ko'zda tutiladi.

Bu o'rinda quyidagi savollarga aniqlik kiritish va talabani tayyor bo'lishi ayni muddao bo'ladi:

1. Asarning musiqiy shakli qanday? (bir qismli, ikki qismli, uch qismli to'g'ridan – to'g'ri rivojlanuvchi).

2. Asarni umumiy ohangdorlik va lad ohangdorligi (tonaltosti) qanday (C – dur, dur, F – moll, e – moll va hokozo)

3. Bayon qilish tarzi qanday? (lirik, tantanali, marshnona, raqsona).

4. Ansambillik xususiyatlari (temp, garmonik, melodik, dinamik va hokozo).

5. Metroritmik xususiyatlari qanaqa?

6. Ohang (kuy), sur'at – temp, o'ziga xos nozik va farqiy jihatlar nimalarda ko'rinadi?

7. Asar diapozoni qanday?

8. Asar qanday xor uchun yozilgan?

9. Asar necha ovozli va qanday partiyalar uchun mo'ljallangan.

10. Asar tessiturasini qanday?

11. Nafas, soz ansambillik vokal – xor jihatdan tahlil qilinadi.

12. Ijrochilik qiyinchiliklari aniqlanadi.

Xor dirijyorligi sinfida ma'lum asarni o'rganish va unga dirijyorlik qilish ustida ishlash jarayonida hamma vaqt “auf takt” ni aniq va ravshanligiga, ritmik sur'atni to'g'ri tanlanishi va asar mazmuniga mosligiga, jummalarni uzish, pauzalarni aniq cho'zimga mos ravishda bo'lishligi, Konsertmeystri (musiqachi) va xor ijrosini uzviyligiga, qo'l harakatining harakat amplitudasiga mos harakatchanligi, turli kichik va katta tovush cho'zimlari kengliklarini qo'lda ifodalash, bunda yelka, tirsak, bilak, barmoqlar (kistlar) ularni plastikligi, ayollar, erkaklar ovoz partiyalariga pp – (pianissimo) dan f – (forte) ff – (fortissimo) gacha ko'tarilishlarini yetkaza olish holatlariga qaratish o'rinli bo'ladi.

Xor asari bilan ishlashda yana bir muhim jihat ijroni “to'xtatish” ga bunda harakatni tushunarli bo'lishiga erishish lozim. Tovush hosil bo'lishi asosan “mayin” (pp, p), “yumshoq”, tovushlarni keksin hujumlari qattiq namoyon bo'lishiga diqqatni qaratish kerak bo'ladi.

Dirijyorlik sinfida maktab xor jamoasini boshqarishga zarur ko'nikma va malakalar olinib, musiqachi - o'qituvchi - dirijyor - xor rahbari shaxsi shakllanadi. Dirijyorlik mashg'ulotlarida talabalar (o'quvchilar) xor asarini o'qishni, fortepiano ijrosi orqali musiqiy obrazni ochib berishga, jamoa bilan musiqiy muloqatni, xorni boshqarish va bunda tovush sifatini nazorat

qilishni, intonasiyalarni tiniqligini ta'minlashni o'rganadilar. Bundan tashqari kamerton yordamida ovozni asar tonalligiga sozlash va undan foydalanishni, ijrochilik rejasini qanday tuzishni, kompazitor (bastakor) ning uslubini tushunishga ham o'rganadilar. Dirijyor o'zining musiqiy dunyoqarashi va mahoratini o'stirishda muntazam shug'ullanishi zarur, shuningdek bu o'rinda xor konsertlariga, xor jamoalari repetisiyalariga borishi va yozib olingan xor ijrolarini tinglab borishlari yaxshi samara beradi.

Pedagogika Oliy o'quv yurtlaridagi "musiqiy ta'lim" yo'nalishida bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini dirijyorlikka tayyorlash ishlari konsertmeystr jo'rligida o'tadi. Aynan ana shunday sharoitda bo'lg'usi dirijyor asosiy dirijyorlik o'lchovlari, sxemalari, dirijyorlik amplitudasi, postanovka, texnikasini ichki his bilan tushunish malakasini egallashga harakat qilishi lozim. Darsda olingan bilim va malakalarni amalda qo'llab, dirijyor sifatida shakllanib boradilar.

Bo'lg'usi o'qituvchi – dirijyorlar oliy o'quv yurtidagi 1 – kurs, ya'ni 1 – o'quv yilida dirijyorlik apparati (postanovka) va imkoniyatlari, dirijyorlikning ikki funksiyasi haqidagi tushuncha ijroni boshqarish va asar mazmunini ifodalash, dirijyorning asosiy holati bilan tanishish va unda imo – ishora, mimikaning rolini bilish kabi malakalarni egallaydilar. Bu vaqt davomida dirijyorlik apparati bilan uyg'unlashtirish tayyorgarlik amalga oshiriladi. Ohangni (melodiya) taktrovka qilib o'rganish, dirijyorlik harakatlari elementlari – hissalarini ifodalashda siltov, intilish, nuqta , qaytarish kabilarni o'rganadilar. Dirijyorlik harakatlarining xususiyatlari – tezlik, tebranish kengligi, harakat amplitudasi, izchillik, kuch. Salmoq, yo'nalish, shakl, harakter, ritm, jo'shqinlik, diqqat, nafas kirish, ovoz tugashini ko'rsatish, uni harakat orqali tushuntirish, metr – o'lchamlarni ko'rsatishning asosiy shtirxlari ligato, non ligato, oddiy 2/4, 3/4, murakkab

4/4 o'lchamli ritmik ko'rinishni ko'rsatish, qo'l harakatlarining boshlang'ich chegarasi, turg'un hissalarini ko'rsata bilish, qisqa cho'zimli harakatchan va nozik ohanglarni ijrosini aniq va to'g'ri bo'lishligiga, maktab repertuari bo'yicha ishlash bosqichlarini o'rganish asosiy ta'limiy vazifalarni belgilaydi.

O'quv yilining ikkinchi bosqichida dirijyorlik bilim va ko'nikmalari hamda malakalarini chuqurlashtirish va dirijyorlikda 6/8, 4/4 va 3/8 kabi o'lchamlarni o'zlashtirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Dirijyorlik tuzilmasida sodda va murakkab o'lchovlarning usullarini farqlash (olti 6/4, 6/8, sakkiz 8/4, 8/2, to'qqiz 9/9, 9/4 va o'n ikki 12/4, 12/8) ohang vazni tezlik kabilar mustahkamlanadi.

Dirijyorlikda asosiy shtrixlar – markato (markato), stakkato (stakkato), aksent (aksent) larda tez va yengil bajarish va bir – biriga o'tish, ularga xos chaqqon va jo'shqin harakatlarni puxta bajarish, pp – (pianissimo) dan f – (forte) ff – (fortissimo) gacha kira olish, har bir qo'l harakatining ritmik ko'rinish, qarama – qarshilik (kontrastik yoki kontrastnaya dinamika) dagi asarlar ustida ishlashni puxta o'zlashtirish.

Ikkinchi yilning o'quv mazmunini maktab repertuari bo'yicha qo'shiqlarni dirijyorlikka moslashtirish, bir vaqtning o'zida bir qo'l bilan vokal (xor) partiyani ham fortepiano ijrosini boshqarish, bir qo'l bilan fortepianoda chalish kabi ancha murakkab vazifalarni bajarish kabilar tashkil etadi. Badiiy – musiqiy obrazlari, musiqiy tili, bayon qilish usuli murakkab bo'lgan asarlar o'rganiladi.

O'quv davrining uchunchi yilida kuylash va dirijyorlik qilish, ijrochilik vazifalari murakkab, turli uslubdagi asarlarga dirijyorlik qilishga o'rganiladi. Masalan, kantata, syuita qismlari va shu bilan birga bolalar xori uchun mo'ljallangan asarlar ustida ish olib boriladi. Dirijyorlik ijrosi mahorati

mujassamlashtiriladi. Bu o'rinda musiqiy mazmunni gavdalantirish, o'ta murakkab usullarni egallash, vazmin va og'ir sur'atdagi (temp) yengil ovoz, pauzalardagi fermatolar va davomli kreshindo (**creshchedo**), dimuniyendo (**diminuendo**), shuningdek **5, 7, 9** (**5/4, 7/4, 9/8**) hissali o'lchovlar, o'zgaruvchan, aralish o'lchovlar o'zlashtirilib, partitura va qo'shiqning bir vaqtda yangrashi va ularni uyg'un ifodalash ustida ishlanadi.

O'quv yilining uchunchi yilida umumta'lim maktablaridagi yuqori sinflari repertuariga katta ahamiyat beriladi. Maktabdagi amaliy ishlarga, talabaning xor jamoasi bilan mustaqil ishlash (yozgi o'quv amaliyoti davrida) mahoratini o'stirishga keng o'rin berish lozim. Maktab yoki maktabdan tashqari muassasalardagi amaliy ishga tayyorlanishdan oldin qo'shiq o'rganish, unga dirijyorlik qilish va xor jamoasi bilan ishlash usullarini o'rganish kerak. Buning uchun talabida kamida 10 – 15 ta zahira asarlar (ya'ni ularni yaxshi o'zlashtirgan, o'sha asarlarni qiynalmay o'rgata oladigan) bo'lishi lozim. O'quv davrining to'rtinchi yilida murakkab janrdagi asarlar, kantata, operalardan ayrim xor asarni o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dasturga ko'p ovozli, polifonik asarlarni kiritish kerak bo'ladi. Dirijyorlik texnikasini namoyish etish, musiqiy badiiy obrazni gavdalantirishda talabani mustaqil ishlashiga (pedagog yordamisiz) imkon beriladi. Xor asarini o'rganish, unga dirijyorlik qilishda ifodalilik, obrazlilik, ta'sirchanlik asosiy tayanch bo'lish kerak. Sinov asarlarini tahlil qilish, xor bilan ishlashga imkon qadar ko'proq vaqt ajratiladi.

Xullas, bo'lg'usi musiqa o'qituvchisining dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash o'zining aniq kasbiy mahoratini o'stirish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Aytib o'tilgan vazifalarning barchasi bo'lg'usi musiqa o'qituvchisi – xor rahbari – dirijyorning kasbiy mahoratining asosiy jihatlari hisoblanadi.

Ta'lim davrida talabalar bilishi va o'zlashtirishi zarur va shart bo'lgan to'rlar (setka) lar quyidagi to'rlardir. Bu yerda to'r (setka) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 va hokozo hissali o'lchovlarga dirijyorlik sxemasini anglatadi.

1. Sodda to'rlar: a) $\frac{3}{2}$, $\frac{3}{4}$, $\frac{3}{8}$, $\frac{3}{2}$ o'lchamida har bir harakatda yarim nota to'g'ri keladi.

2. $\frac{3}{4}$ o'lchamida har bir harakatda chorak nota, $\frac{3}{8}$ o'lchamida har bir harakat nim chorak notalarni ifodalaydi.

A)

Izoh: $\frac{3}{8}$ ga ba'zan "bir" shaklida ham dirijyorlik qilinadi.

2. To'rt hissali to'r (setka) $4/8$, $4/4$, $4/2$ o'lchamli metrlarda qo'llaniladi.

A)

3. Ikki hissali to'r (setka). $2/2$, $2/4$, $2/8$.

A) $2/2$ o'lchamda har bir harakatda yarim nota to'g'ri keladi.

B) $2/4$ o'lchamida har bir harakatda chorak nota to'g'ri keladi.

V) $2/8$ o'lchamda har bir harakatda nimchorak nota to'g'ri keladi.

Ko'rib o'tilgan to'rlarning barchasida birinchi hissa kuchli hissa bo'lib, u vertikal va nisbatan o'ziga xos ta'kidlilik bilan ajralib turadi.

$5/4$ o'lchovi, ya'ni besh hissali to'r (setka).

Bunday o'lchovlar 4 hissali o'lchovga dirijyorlik harakatlari singari dirijyorlik qilinadi. Bu o'rinda dirijyorni o'z imkoniyatiga ko'ra 1 hissani ikkilantiradi. Masalan:

Bu yerda uchunchi hissa ikkilantirilgan. $\frac{5}{4}$ o'lchovi $\frac{3}{4} + \frac{2}{4}$ o'lchamlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan o'lchovdir.

$\frac{7}{4}$ o'lchovi, ya'ni yetti hissali to'r (setka). $\frac{4}{4} + \frac{3}{4}$ o'lchovlari qo'shilmasi bo'lib, bu o'lchovlarga dirijyorlik qilishda 2 ta hissa ikkilantiriladi. Bu 2 – 3 yoki 2 – 6 – hissalar bo'lishi mumkin.

Tez sur'atdagi yetti hissali o'lcham uch hissali tuzilma bo'yicha turli guruhlanishlarda ($2 + 2 + 3$; $2 + 3 + 2$; $3 + 2 + 2$) uch hissali tuzilmada dirijyorlik qilinadi.

To'qqiz hissali to'r (setka), 3 ta chorak, nim chorak, o'n oltitaliklarni har bir hissada uch martadan takrorlanishi orqali guruhlanadi. Bu o'lchamga asosan uch hissali o'lchamga dirijyorlik qilgandek dirijyorlik qilinadi. Masalan:

Pedagogik amaliyotda dirijyorga ko'pincha juda sust (vazmin) temp (sur'at) dagi asarlarni ijro etishga to'g'ri keladi. Bunday holatlarda aniq ritmik sura'atni sozlagan holda kuchli va kuchsiz hissalar munosibligini saqlagan holda dirijyorlikning bo'lingan tuzilmalarini qo'llab harakatlarni ko'paytirish kerak. Unda har bir hissa ikki qismga – asosiy va yordamchi qismlarga bo'linadi. Hissaning asosiy qismi katta tebranish harakati ishorasida, yordamchi qism esa odatda panjalar (kist) harakatlarida ijro etiladi.

2.2 Dirijyorlik mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakl va uslublari.

Bugungi kunda oliy pedagogika ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar kelajakda umumta'lim maktablarida, kollejlarda musiqa bo'yicha ijodiy jamoalar, bolalar musiqa va san'at maktablarida, hatto oliy o'quv yurtlarida musiqa darslarida dars berishi mumkin. Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchi shuni unutmasligi kerakki, maktab "musiqa madaniyati" darslari tarkibida qo'shiq kuylash, ya'ni jamoa bo'lib (xor bo'lib) kuylash yetakchi faoliyat hisbolanadi. O'z – o'zidan ravshanki, jamoaviy ijrochilik dirijyorlik boshqaruvisiz bo'lmaydi. Bu faoliyatda o'qituvchi ham xor rahbari, ham dirijyor, ham xonanda, ham konsertmystr (cholg'uchi akkompaniyator) vazifalarini bajarishga to'g'ri keladi. Shuning uchun oliy ta'limdagi tahsil jarayonida dirijyorlikka tayyorlashning eng muhim usul va shakllari haqidagi bilimlar ular uchun ortiqchalik qilmaydi, aksincha ular bu boradi bilim va malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlariga to'g'ri keladi.

Musiqiy ta'limning oliy pedagogika tizimdagi mavjud bosqichida musiqa fanlarining o'qitishning asosiy vazifalaridan biri – ijodkor shaxsni shakllantirish hisoblanadi. Bu vazifa musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega, zero har qanday mustaqil faoliyat – ijoddir. Shu o'rinda talaba va o'quvchilarning tashabbuskorligini, ijodiy izlanishlarini rivojlantirishga nimalar ijobiy ahamiyat kasb etadi yoki asosiy turki bo'ladi degan savolga kengroq to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

Masalan, o'quv jarayoniga taniqli dirijyor – pedagog G.G. Golik tavsiya etgan uslubga binoan bastakorlik ijodi elementlarini ko'rsatish mumkin. Bular talabalarning xor asarlarining she'riy matnlari, xor aranjirovkalari asosidagi mustaqil izlanishlari bo'lishi mumkin. Bu esa dirijyorlik qilayotgan asarga o'z ijodiy "qarashlari", "fantazasi" ni yaratishga, tashabbuskorligini, ijodiy tasavvur qilish, o'z kuchiga ishonchini oshirishiga yordam beradi. Xor

dirijyorligi o'quv kursidagi pedagogik jarayoniga o'qitishning muammoli texnologiyalarini kiritish ham sezilarli darajada foydali ahamiyat kasb etadi. O'qitishning bu shaklida talabaga asarning shakli, tuzilishi, o'lchovi, lad – tonalligi, xarakteri haqidagi muammoli savold tashlanadi va sinfdagi talabalar unga o'zlarini javoblarini bildirishadi va amaliy ko'rsatib berishlari so'raladi. Xor asarlarini tahlil qilish ham talabalarni asarlarga dirijyorlik qilishda asarni to'ralicha idrok qilish, eng muhim jihatlarni tushunish, bilish va dirijyorlik jarayonida e'tiborda tutish, qolaversa asarni dirijyorlik yo'nalishida oson o'zlashtirishlarida qo'l keladi. Chunki, asarni nazariy tomondan yaxshi o'zgarmasdan turib unga amaliy yondashish, ya'ni dirijyorlik qilish bilan ko'zlangan maqsadga erishish to'g'risida fikrlash mantiqan noto'g'ridir.

Xor asarlariga dirijyorlik qilishni rejalashtirishda asarni butunligicha tahlil qilish, talabalarda asarlarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish o'ziga xos pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Bu o'rinda dirijyor pedagog V.L. Jivov tomonidan tavsiya etilgan muammoli izlanishlar topshiriqlarni qo'llash ham samarali uslublardan biri hisoblanadi. Masalan, xor partiturasining nazariy ijrochilik tahlilida shunday savol muammoli bo'lishi mumkin.

“Siz o'z ijrochilik fikrlaringizni qanday dirijyorlik usullari yordamida gavdalantirasiz? Yoki ifodalaysiz?” bu o'rinda talabani musiqiy tafakkuri, bilim va ko'nikmalari darajasi, ijodiy fantaziyasi, asarni xarakteri, g'oyaviy – badiiy mazmunini qanchalik tushunishi, his qilish va uni badiiy ifodalash mahorati katta rol o'ynaydi. Nota matnini to'g'ri o'qish asosida talaba o'qituvchining bevosita yordami asarga dirijyorlik qilishning o'ziga xos “to'qimasi” ni o'z hayolida ishlab chiqqan tarzda interpretasiya elementlari bilan moslab beradi. Talabaning mustaqil dirijyorlik usullari qanchalik o'ziga

xos va asar mazmuni va mohiyati, dirijyorlik qoidalariga to'g'ri kelishiga ko'ra ajoyib bo'lsa, musiqaning badiiy xususiyatlarini dirijyorlik sxemalari, ishoralarida aks ettirish shunchalik muvofaqiyatli, yorqin, ijro esa ko'tarinki ruhda bo'ladi. Partituralar ustidagi taxminiy ishlar jarayonida "oqlangan matn" uslubidan foydalanish mumkin.

Bu uslubni qo'llanish mazmuni quyidagicha bo'lish mumkin. Masalan, o'qituvchi tomonidan bir asar tanlanadi. U asar jo'rli yoki jo'rsiz bo'lishi mumkin. Deylik, Sh. Yormatov tomonidan jo'rsiz xor uchun moslashtirilgan. "Boychechak" (bolalar xalq qo'shig'i) qo'shig'ini o'qituvchi uni oldindan yozib tayyorlab qo'yadi, lekin, asar muallifi ham, asar nomi ham, she'riy matn ham yozilmaydi. (nota matni bo'ladi). Asarning o'lchovi, tempi, lad – tonalligi, har xil nyunslari (dinamik belgilari ham) ko'rsatilmaydi.

Talaba esa na shu partituraning frazirovkasini, ovoz xarakterini va asar ijro uslubini, ohang tuzilmasini (melodiya) anglashi, tezlik, nyunslarini, mazmunini, nafasni joylashtirish, musiqiy ovozni o'ylab topishi, imkoniyat darajasida matn tuzishi kerak bo'ladi. Uning vazifasi musiqani ichki eshituv bilan his etib, musiqiy ma'nodorlikni idrok etishdan iboratdir. So'nggi bosqichda esa musiqani eshitib unga dirijyorlik "to'r"i (setka)ni to'g'ri topishi talab etiladi. Bunday topshiriqlar ko'pincha talabalar qiziqish bilan bajaradilar.

Bunday uslublar talabalarning musiqiy tafakkurini faollatiradi, kuzatuvchanligini oshirib, mustaqil faoliyat yuritishga o'rgatadi. Dirijyorlikka tayyorlashda talabalarning ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab mustaqil ishlash, topshiriqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

O'quv mashg'ulotlari jarayonida dirijyorlik texnikasi va mahoratini egallash uchun musiqiy obraz, dirijyorlik qilish uslublari, egallangan bilim,

malaka va ko'nikmalar pedagogikaning shaxsiy namunasiga tayanishni taqazo etadi. Bu yo'l – yo'riqlar uchun o'qitishning uch shakli muhim rol o'ynaydi.

- birinchi holdagi o'qitish shaklida eng muhim element bu o'qituvchi namunasi, ya'ni - bosh orentir o'qituvchi namunasidir.

- ikkinchi holda eng muhim asos, u pedagog tomonidan berilgan vazifa, tushuntirish, ko'rsatib berishdir.

- uchunchi holat – o'quvchi – talabalar mustaqil ravishda o'ziga xos yo'l – yo'riqlar tarkibini topadilar.

Musiqiy obraz va bililar tizimi, dirijyorlik harakatlarini bajarish usullari haqidagi tasavvurlarga suyangan holda asarlarga dirijyorlik qilish ustida ishlaydilar.

Bizning mazkur tadqiqot ishimizni bajarish davomida sinovdan o'tkazgan va o'zimiz samarali deb hisoblagan uslublardan yana biri haqida to'xtalib o'tamiz. Mazkur ish uslubi boshqalardan amaliy malakalarga tayangan holda talabalarda ishlash ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi. Buning uchun “dirijyorlik sinfi” da egallangan bilimlarga tayangan holda xor jamoasi bilan ishlash (xorga dirijyorlik qilish) yoki xuddi xor bilan ishlashga yaqin sharoitini (muhitni) sinfda yaratish kerak. Bunda bir talaba dirijyor, qolganlar xor ishtirokchilari sifatida qatnashadilar. Dastlabki mashg'ulotlarda talabalar navbat bilan o'qituvchining bevosita ko'magida bajariladigan vazifalarni ketma – ketligi (reja) asosida tanlangan asarni xorga o'rgatish, dirijyorlik qilishga kirishadilar. Bunda ovoz sozlash, asarni e'lon qilish, nota yozuvidagi ovoz partiyalarini xor jamoasi ishtirokchilariga tarqatish, konsertmeystr jo'rligida ovoz partiyalari bilan ishlash, so'ngra 1 – 2 ovozni qo'shish, asarni kichik qismlarga bo'lib ishlash, auf takt, nafas, ijroni boshlash, cho'zimlarda ushlab turish, konsertmeystrgsha so'ngra xorga

ko'rsatish – barchasini o'qituvchi nazoratida bajariladi. Bu jarayon davomli tarzda amalga oshirganda eng samarali uslub bo'lib, asta – sekinlik bilan talabani xor bilan ishlash, xor ijrosini boshqarish, nazorat qilish, xor va musiqani eshitish, o'z harakatlarini xor ishtirokchilariga tushunarli bo'lishi, o'z hatti – harakatini nazorat qilish, yutuq va kamchiliklarni sezish va kelgusi mashg'ulotlargacha ularni bartaraf etish ustida mustaqil ishlashlariga katta yordam beradi. Bunday uslubda ishlaganda talabalarda ijodiy tasavvur va taqqoslash malakalari yaxshi rivojlanadi.

Musika o'qituvchisi uchun asar nota yozuvini (matnini) qog'ozdan o'qish (chitka va listka) juda muhimdir. Dirijyorlik sinfida ham bunga alohida e'tibor qaratiladi. Tanlangan asarlarni qog'ozga qarab o'qishni doimiy ravishda mashq qilib borish kerak bo'ladi. Bunda talabalar nota matnini solfedjio uslubida ko'z bilan taxminan kuzatibtanishadilar bunda tezlik, ladotonal reja, o'lcham, asarning ohangdorlik xususiyatlari (kuy tuzilmasi), ritmika mustaqil yoki o'rnini bosuvchi jo'r ovoz shakllari farq qiluvchi yoki takrorlanuvchi iboralarni aniqlaydilar.

Pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi “musiqiy ta'lim” ixtisosligi bo'yicha “dirijyorlik” o'quv fanini bugungi kundagi tashkil etilishi, biz tomonimizdan ilgari surilgan, nazariy – pedagogik g'oyalar, amaliy tavsiyalarni bevosita amaliyotda qanday natijalar berishi o'rganish, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish maqsadida tajriba – sinov ishlarini tadqiqotimiz asosiy o'rinlaridan biri sifatida olib borishga harakat qildik.

Oliy pedagogika ta'lim tizimida bo'lajak musika o'qituvchilarini “Dirijyorlik” fani bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosini tadqiq etish bo'yicha tajriba – sinov ishlarini olib borish uchun maxsus ishchi dastur ishlab chiqdik. unda dirijyorlik bo'yicha mashg'ulotlar jarayonida talabalarni fan sirlarini puxta egallash, xor asarlariga dirijyorlik qilish, asarlarni mustaqil

o'rganish, ovoz partiyalarini yod olish, asarlarga dirijyorlik qilish rejasini tuzib chiqish, xor bilan ishlash va xor jamoasini boshqarish e'tiborga olindi. Tajriba – sinov ishlari jarayonida tajriba guruhlaridagi talabalarning dirijyorlik malakalaridagi ijobiy o'zgarishlarni aniqlash, qiyosiy o'rganish maqsadida nazorat – guruhlar, tajriba sinov ishlarining bosqichlari (tayyorgarlik, asosiy shakllantiruvchi, yakuniy) aniqlandi, shuningdek ularning obe'ktlari, statistik tahlilning mezonlari aniqlandi.

Bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik faoliyatiga tayyorlash samaradorligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayonni quyidagi metodlarga tayangan holda o'tkazish lozim deb topiladi:

- pedagogik kuzatuv;
- yangi metod va usullarni qo'llash;
- suhbat va savol – javob;
- anketa so'rov;
- bahs munozara;
- pedagogik tajribalarni umumlashtirish, qiyosiy tahlil qilish, xulosalash;
- matematik statistika;

Tajriba – sinov ishlarini muvoffaqiyatli kechishiga erishishda obyektiv va subyektiv omillar nazarda tutiladi va ular ma'lum darajada bu faoliyatning samaradorlik kasb etishiga olib keladi:

1. Mashg'ulotlar jarayonida talabalarda dirijyorlik ko'nikma va malakalarini shakllantirishning dastur talablariga mos kelishi va mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorgarlik holati;

2. Talabalarning pedagogik faoliyatda dirijyorlik malakalarini to'liq namoyon etishga nazariy va amaliy jihatdan tayyorligi;

3. Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qullay olishi;

4. Talabalarni ta'lim jarayonidagi faolliklari, ularni o'z ustida ishlash ko'nikmalariga egaligi;

Tadqiqotning muammosi doirasida tajriba – sinov ishlari asosan uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi. Bunda tajriba sinov ishlari olib boriladigan Oliy ta'lim muassasasi, guruhlar, mashg'ulotlar rejalari aniqlanadi;

2. Asosiy shakllantiruvchi bosqich. Bu jarayonda talabalar bilan ishlab chiqilgan dastur asosida mashg'ulotlar olib borish, samarali deb hisoblangan ish shakl – usullarini sinovdan o'tkazish ko'zda tutiladi;

3. Tajriba – sinov ishlarini yakuniy bosqichi, natijalarni umumlashtirish, tahlil qilish va matematik – statistika uslubidan aniqlash uslubi.

Tajriba sinov ishlar A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika instituti “Musiqiy ta'lim” bakalavriyat yo'nalishida olib borildi. Ta'lim yo'nalishlarida “Dirijyorlik” darslari “guruhchalar” tarzida olib boriladi, ya'ni 5 ta talaba bir “guruhcha” (pod grupp) tashkil etadi va bir sinfda bir o'qituvchi va konsertmeystr ishtirokida tashkil etiladi. Shu munosabat bilan biz 3 – 4 bosqichlardan har biridan 2 tadan 4 guruhni tajriba guruhi sifatida, 3 -4 – bosqichdan 2 tadan 4 ta guruhni nazorat guruhi sifatida tanladik. Bunda tajriba guruhda 20 ta nazorat guruhidagi talaba tajriba – sinov ishlariga jalb etildi.

Biz tadqiqotimiz samaradorligini aniqlash imkonini beruvchi uslub sifatida tajriba boshida har ikkala, ya'ni tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarning “dirijyorlik” bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarliklarini aniqlab olishga jazm qildik. Bu quyidagi mezonlar asosida aniqlandi:

1. Dirijyorlik postanovkasi – 10 ball;

2. Auf takt (izohlash, amalda ko'rsatish) – 10 ball;

3. Ijroni boshlash, tugullash – 10 ball;
4. Asarni harakterini to'g'ri ifoda etishi – 10 ball;
5. Xorga dirijyorlik qilish uquvi – 10 ball;
6. Asosiy shtrixlarni qo'llay olishi – 10 ball;
7. Manual texnikasi – 10 ball;
8. Dinamik tuslarni ifodalashi – 10 ball;
9. Turli o'lchovlarga dirijyorlik qila olishi – 10 ball;
10. Nota o'qish malakasi – 10 ball.

Ushbu mezonlar asosida talabalarni dirijyorlik bo'yicha bilim, ko'nikma malakalarini ham nazariy ham amaliy jihatdan aniqlash maqsadida tanlab olingan 8 ta guruhda (4ta tajriba, 4ta nazorat) talabalar maxsus “sinov” dan o'tkazildi. Talabalar bilim malakalari har bir talab bo'yicha 10 ballik tizimda baholanib, umumiy natijalar 100 ballik darajada umumlashtirildi. Talabalar tomonidan to'plangan ballar quyidagicha darajalandi:

- 80 – 100 balgacha ko'rsatkichlar “yuqori” daraja bilan;
- 60 – 80 ball natijalari “o'rta” daraja bilan;
- 40 – 60 ballgacha natija ko'rsatganlar “past” daraja bilan va 40 dan past ko'rsatkichlar “qoniqarsiz” daraja bilan baholandi.

Demak, tajriba guruhida kasbiy tayyorgarlik darajasi nazorat guruhidan katta ekan: $X > Y$.

Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Biz bu olib borilgan tadqiqot ishlarimiz, ishlab chiqqan metodikamizning samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

UMUMIY XULOSALAR.

“Ta’lim to’g’risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo’nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning bilimi va kasb mahoratining qay darajadaligiga ko’p jihatdan bog’liq. O’qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog’lik aql, bilim va kasb mahorati bilan bajarishi jamiyat kelajagini ta’minlovchi muhim omildir.

Bu o’rinda ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida, shu jumladan oliy pedagogik ta’limda har bir fan o’qitilishida uning eng muhim imkoniyatlaridan to’liq foydalanish, ta’limni uzviylik va uzluksizlik asosida yo’lga qo’yish juda muhimdir.

Pedagogika tarixi va nazariyasida o’z ifodasini topgan ma’naviy tushunchalar, tamoyillar va ulardan foydalanishdan qulay pedagogik va psixologik muhit yarata oladigan metod va vositalar ta’lim sifat va samaradorligini oshiruvchi omillar bo’lib xizmat qiladi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida shu narsalar ma’lum bo’ldiki, musiqiy ta’lim yo’nalishida mutaxassislik fanlarini o’qitishda o’ziga xos pedagogik yondashuvlar nihoyatda muhim sanaladi:

- fanni o’qitishning shakli, o’ziga xosligi, bo’lg’usi o’qituvchining kasbiy faoliyatida tutgan o’rni va ahamiyati;
- fanni o’qitishning metodologik asoslari va metodik tizimining yaratilganligi;

- o'quv – uslubiy ta'limotning kerakli darajada mavjudligi;
- pedagogik shart – sharoitlarni yaratilganligi;
- ta'limga texnologik yondashuvning ma'lum meyorlar asosida tizimlashtirilganligi;
- ta'lim oluvchilarning musiqiy bilim, tushuncha, qiziqish, qobiliyat va iqtidorlari bo'yicha ma'lum zahiralarga egaligi;

Demak, milliy – musiqiy ta'lim asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash ta'limning asosiy shakllantiruvchi bosqichlaridagi o'qitish ishlarining mazmun va mohiyatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqot so'ngida quyidagi xulosalarga kelindi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi “musiqiy ta'lim” ixtisosligida “dirijyorlik” fani “vokal ijrochiligi”, “asosiy cholg'u asbobi” kabi fanlar o'zining tuzilishi, tashkiliy xususiyatlari va musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi tutadigan o'rni bilan ajralib turadi.

Musiqa darslarini olib borishda o'qituvchi musiqa san'atining bir necha fanlardan olingan bilimlarini bir dars davomida qo'llashiga to'g'ri keladi. Darsning asosiy faoliyati hisoblanmish jamoa bo'lib qo'shiq kuylash esa dirijyor boshqaruvi bilangina amalga oshiriladi. Bu esa bo'lajak musiqa o'qituvchilarini dirijyorlik bo'yicha ham kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini o'ziga xos metodik tizim asosida yo'lga qo'yilishini taqazo etadi. Shu bois tadqiqotimizni bajarish natijasida quyidagi ishlar amalga oshiriladi.:

1. Tadqiqot mazmunida “musiqiy ta'lim” ixtisosligi bo'yicha umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda “dirijyorlik” fani sinfida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilindi, bugungi kunda uni zamon talabalari asosida tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari o'rganildi.

2. Dirijyorlik mashg'ulotlarini tashkiliy – uslubiy asoslarini to'g'ri yo'lga qo'yish, ta'lim – tarbiya ishlarini pedagogikani umumdidaktik prinsiplariga tayangan holda, fanni o'qitishning o'ziga xos spesipik xususiyatlariga ko'ra tashkil etish;

3. O'qitish jarayonini har bir bosqich (kurslar) kesimida oddiydan murakkabga tamoyili va talabalarni individual qobiliyat va musiqiy tayyorgarliklarini hisobga olgan holda olib borish;

4. Ilmiy tadqiqot ishimizda dirijyorlik sinfida olib boriladigan mashg'ulotlarda talabalarni musiqiy – nazariy savodxonligini muttasil oshirib borish, fanlararo bog'liqlikdan unumli va o'rinli foydalanish dars samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi;

5. Oliy pedagogik ta'lim tizimidagi “musiqiy ta'lim” ixtisosligida o'quv rejasidagi ilgari (2008 yilgacha) “yakka tartib holida” o'tib kelingan “vokal ijrochiligi”, “dirijyorlik”, “asosiy va qo'shimcha cholg'u asbobi” fanlarini guruh holida o'tilayotganligi munosabati bilan ushbu fanlarning o'qitishning shunga mos o'quv dasturi, Davlat Ta'lim Standartlari va darsliklar mazmunini yangi vaziyatga moslangan variantlarni yaratish kerakligi ilmiy dalillar asosida ko'rsatib berildi;

6. Ilmiy tadqiqot ishida “dirijyorlik sinfida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlash tizimini ta'minlashtirish, shu jarayonda talabalarda kasbiy malaka, bilim va amaliy ko'nikmalar va tajribalar hosil qilishlariga erishildi va bu o'rinda o'qituvchi pedagog oldiga qo'yiladigan talablar mohiyati ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qulimiz bilan quramiz. – T; - O'zbekiston.-1999 yil.
2. I. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent; Sharq nashriyot matbaa konserti, -1999 yil.
3. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T;- Ma'naviyat. – 2008 yil.
4. I. Karimov. O'zbekiston mustaqillik ostonasida. – T;
5. I. A. Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T; - O'zbekiston, 1996 yil.
6. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T; - Ma'rifat, 1998y.
7. O'zbekiston Davlat Ta'lim Standarti. Oliy ta'lim. Bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. T; - O va UMTV, 2008 yil.
8. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. – T; - Ta'lim taraqqiyoti, maxsus 6-7-sonlar-1999 yil.
9. Dirijyorlik. Fan dasturi. T; - O va UMTV, 2008 yil.
10. Dirijyorlik. O'quv – uslubiy majmua. – SamDU, 20011 yil;
11. Sh. Ro'ziyev. Xorshunoslik. – T; O'qituvchi, 1987 yil.
- 12.N. Sharafiyev. Xorshunoslik. – Toshkent, - O'qituvchi, 1988 yil.

13. Estetik tarbiya asoslari. N. Kumayev tahriri ostida. – T; - O'qituvchi, - 1998 yil.
14. Musiqa o'qitish metodikasi. (Ma'ruzalar matni). Tuzuvchi G.Sharipova. – TDPU – 2000 yil.
15. D. Soipova. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. –T;- Fan va texnologiyalar, - 2006 yil.
16. Asfayev B. V. O xorovom iskusstva. – M; - Muzika, 1980y.
17. E. Tashmatov. Dirijyorlik. – Toshkent - O'zbekiston Faylasuflar jamiyati nashriyoti, - 2000 yil.
18. Andriyev A.M. Metodika prepodovaniya xorovogo dirijirovaniya. M; - Prosvedeniya, 1989 yil.
19. Anshimov A.M. Dirijyor – Xormeystr. – M; - Muzika, 1996 yil.
20. Olxov K.A.Vokroyev teorii dirijerskoy texniki i obucheniya xorovyx – dirijyorov. - Prosvedeniya, 1988 yil.
21. Sokolov. V. G. Rabota s xorom. - Prosvedeniya, 1993 yil.
22. K. Azimov. O'zbekiston dirijyorlari. T;- G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti- 2001 yil.
23. Ginzburg L. Dirijyoreskoye shkusetvo. – M; - Muzika, - 1975 god.
24. I. Qudratov. Talabalar va bolalar ashula va xor jamoalarini tashkil etish va ular bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, - Fan va texnologiyalar bosmaxonasi – 2006 yil.
25. N. Qoziyev. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. 1 –kitob. –T; - G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti- 1975 yil.
26. N. Qoziyev. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. 2 kitob. – Toshkent, - T;- G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti- 1976 yil.
27. N. Qoziyev. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. 3 kitob. – Toshkent, - T;- G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti- 1977 yil.

28. H. Nurmatov, N. Norxo'jayev. Musiqa alifbosi. 1-sinf darsligi. –T;- G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti- 2002 yil.

29. H. Nurmatov, N. Norxo'jayev. Musiqa 2-sinf darsligi, -T;- G'.G'ulom nomidagi Adabiyot san'at nashriyoti- 2003 yil.

A. Navoiy nomli SamDU “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi bitiruvchi kurs talabasi Kenjayeva Dildora tomonidan bajarilgan “Talabalarni xor – dirijorligi bo’yicha amaliy faoliyatga tayyorlashning uslubiy asoslari” mavzusidagi Malakaviy Bitiruv ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I.

Pedagogika Oliy o’quv yurtlarida “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi bo’yicha bo’lajak musiqa o’qituvchilarini Oliy ta’lim “Bakalavrlar tayyorgarligini zaruriy mazmuni va darajasiga talablar” (DTS)ga ko’ra kasbiy faoliyatga tayyorlashda o’quv rejasidagi mutaxassislik fanlari tarkibida “Dirijyorlik” fani alohida o’rin tutadi.

Kenjayeva Dildora tomonidan bajarilgan mazkur tadqiqot ishida “dirijyorlik” fanini o’qitishda talabalarning dirijyorlikning eng asosiy nazariy va amaliy talablari bo’yicha o’zlashtirishlari lozim va zarur bo’lgan eng muhim unsurlar, ularning dirijyorlik san’atida tutgan mavqeyi, mazmun va mohiyati ilmiy jihatdan yoritib berilgan.

Ishning asoslanma qismida mavzu muammosini dolzarblik jihatlari ishonchli dalillar bilan asoslab berilgan, uni o’rganish va tadqiq etishning maqsad va vazifalari ilmiy nuqtai – nazardan talqin etilgan.

Ishning birinchi bobi **“Musiqiy ta’lim mutaxassislik fanlari tizimida dirijyorlik predmetining tutgan o’rni”** deb nomlanib, unda asosiy e’tibor musiqiy ta’limda o’quv rejasidagi “Dirijyorlik” fanini tutgan o’rnini, uning musiqa o’qituvchisining kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini ko’rsatib berishga qaratilgan.

Ishning **“Dirijyorlik fani bo’yicha o’quv jarayonini tashkiliy tuzulish xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida muallif nazariy ma’lumotlarni bevosita amaliy jarayon bilan bog’langan holda, olib borish shu o’rinda dirijyorlikda nazariy – uslubiy asoslarini eng muhim elementlarini o’zlashtirishga doir fikr – mulohaza va qarashlarini bayon etadi.

Muallif ishni bajarishda dirijyorlik fanida to’plangan tajribalar va nazariy qonun – qoidalarni yetarli darajada o’rgangan. Eng muhimi ularni bayon etish bilan birga ish nihoyasida kerakli xulosalar chiqaraolgan.

Ushbu ish Oliy ta’lim vazirligi tomonidan chiqarilgan “Bitiruv Malakaviy ishlarini yozish va rismiylashtirish” bo’yicha “Nizom” talablariga javob beradi, uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

p.f.n. dos. I. Qudratov

**A. Navoiy nomli SamDU “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi bitiruvchi
kurs talabasi Kenjayeva Dildora tomonidan bajarilgan “Talabalarni xor
– dirijorligi bo’yicha amaliy faoliyatga tayyorlashning uslubiy asoslari”
mavzusidagi Malakaviy Bitiruv ishiga**

T A Q R I Z

Musiqqa madaniyati darslarida xor ijrochiligi faoliyatini talab darajasida tashkil etilishini ta’minlashda o’quvchilarni dirijyorlik qonun – qoidalari bilan tanishtirib borishning nazariy - uslubiy asoslarini yoritib berish ushbu bitiruv malakaviy ishning mohiyatini belgilaydi.

Kenjayeva Dildora tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishning kirish qismida tanlangan mavzuning musiqa pedagogikasida o’ziga xos va muhim muammo tadqiqiga qaratilganligi yetarlicha asoslab berilgan. Shu o’rinda ilmiy ishning yangiligi, maqsadi, obyekti, ilmiy – amaliy ahamiyati dalillangan.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ruyhatidan iborat. Ishning birinchi bobida masalaning nazariy jihatdan o’rganilganligi, o’quvchilarni dirijyorlik ko’rsatmalarini tushunib kuylashga o’rgatishning maqsad va vazifalari ilmiy tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobi o’zining tuzulish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Unda muallif o’zining izlanishlari, hayotiy misollar va bevosita musiqa darslari bilan bog’langan holda ifoda etadi.

Ish muvaffaqiyatli tarzda bajarilgan. Xulosa va tavsiyalar ilmiylik xarakteriga ega. Shu bilan birga unda ayrim kamchiliklar ham mavjud.

Muallif ishni bajarishda dirijyorlik fanida to'plangan tajribalar va nazariy qonun – qoidalarni yetarli darajada o'rgangan. Eng muhimi ularni bayon etish bilan birga ish nihoyasida kerakli xulosalar chiqaraolgan.

Ushbu ish Oliy ta'lim vazirligi tomonidan chiqarilgan “Bitiruv Malakaviy ishlarini yozish va rismiylashtirish” bo'yicha “Nizom” talablariga javob beradi, uni himoyaga tavsiya etaman.

Professor:

Ergashev A.A

**A. Navoiy nomli SamDU “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi bitiruvchi
kurs talabasi Kenjayeva Dildora tomonidan bajarilgan “Talabalarni xor
– dirijorligi bo’yicha amaliy faoliyatga tayyorlashning uslubiy asoslari”
mavzusidagi Malakaviy Bitiruv ishiga**

T A Q R I Z

Umumta’lim maktablarining “musiqa madaniyati” darslarida o’quvchilarni musiqiy – nazariy savodxonligini shakllantirishda musiqa asarlarini nazariy va uslubiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi va o’ziga xos pedagogik yondashuvlarni talab qiladi.

Kenjayeva Dildora mazkur bitiruv malakaviy ishida ushbu muammolarni pedagogik metodik va didaktik asoslarini tahlil qilish orqali asarlarni tahlili qilinishining samarali ish shakl va usullari pedagogik – psixologik imkoniyatlarini yoritib bergan. Tadqiqot ishi Kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro’yhatidan iborat bo’lib, mavzu muammosi yechimiga yo’naltirilgan bob va paragraflar ilmiy jihatdan to’g’ri rejalashtirilgan.

Bitiruv ishining birinchi bobi **“Musiqiy ta’lim mutaxassislik fanlari tizimida dirijyorlik predmetining tutgan o’rni”** deb nomlanib, uning mazmunida musiqa darslarida dirijyorlik bo’yicha olib boriladigan o’quv ishlari mazmuni va mohiyati, musiqa asarlarini idrok etish va tahlil qilishga o’rgatishning maqsad va vazifalari ilmiy – uslubiy manbalarga tayanilgan holda asoslab berilgan.

Tadqiqot ishining **“Dirijyorlik fani bo’yicha o’quv jarayonini tashkiliy tuzulish xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobida esa asosiy e’tibor

mazmuni tadqiq etish yuzasidan olib borilgan tajriba kuzatuvlar qo'llanilgan ish shakl va uslullari, asarlarni tahlil qilishning amaliy ishlanmalari taqdim etilgan.

Shuni alohida e'tirof etish joizki, olib borilgan tajriba ishlari natijalari, muallifning o'z ishini bajarishga ijodiy yondashganligiga ko'plab ilmiy – usulubiy manbalarni o'rganib to'g'ri xulosalar chiqarilganligiga va olingan natijalar shuni ijobiy yechim tanlaganligidan dalolat beradi.

Ishni tamoman kamchiliklardan holi deb ham bo'lmaydi. Bu ayrim bayoniy fikrlarni tarqoq va reja bo'yicha izchillik kasb etmaganligida ko'rinadi. Shunga qaramasdan ushbu Bitiruv Malakaviy ishini uni bajarish bo'yicha “Nizom” talablariga mos ravishda bajarilgan tadqiqot sifatida baholash va himoyaga tavsiya etilishini ma'qullayman.

P.f.n. dotsent:

Yusupov H.Yu

